

**SHODIYEVA SADOQAT BOBOQULOVNA**

# **RANGTASVIR**

*Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 60210800-Amaliy san’at (turlari bo‘yicha) 60210500-Rangtasvir (dastgohli) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha taxsil olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**“KAMOLOT” nashriyoti  
BUXORO – 2022**

**UO‘K: 514.18.78.071**

**KBK: 22.151.3**

Shodiyeva Sadoqat Boboqulovna, Rangtasvir. [Matn] : o‘quv qo‘llanma / S.B.Shodiyeva - Buxoro.: “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022-100 b.

*Mazkur o‘quv qo‘llanma 60210800-Amaliy san‘at (turlari bo‘yicha), 60210500-Rangtasvir (dastgohli) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha taxsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va fan dasturi asosida tuzilgan. Qo‘llanmada rangda ishlash texnikasi, natyurmort tuzish va uni chizish qonun-qoidalari, manzara ishlash va jonli inson qomatini rangda ishlash haqida nazariy va amaliy ma‘lumotlar hamda mavzularni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar berilgan.*

*O‘quv qo‘llanmadan Rangtasvir fani o‘qitiladigan barcha OTM talabalari va professor-o‘qituvchilari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va ixtisoslashtirilgan maktab internati o‘qituvchilari ham bevosita foydalanishlari mumkin.*

### **Taqrizchilar:**

*Nodir YADGAROV-BuxDU “Tasviriy san‘at va muhandishk grafikasi” kafedrasi professori, pedagogika fanlarni nomzodi*  
*Xumoyin TURAYEV-TerDU “Tasviriy san‘at va muhandishk grafikasi” kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**ISBN: 978-9943-9017-3-2**

*Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
2022-yil 23-noyabrdagi 388-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida  
nashr qilishga ruxsat etilgan.*



© “KAMOLOT” nashriyoti  
© Shodiyeva Sadoqat Boboqulovna

## KIRISH

*“Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash ”dir<sup>1</sup>.*

*Zero, har bir mutaxassisning barkamolligi, maqsadga intiluvchanligi, serg‘ayratligini rivojlantirmay turib mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-siyosiy, xuquqiy-axloqiy, mafkuraviy barqarorlashtirishni amalga oshirib bo‘lmaydi. Demak, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi, ertangi baxtli hayotimiz, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotimizning muhim va dolzarb muammolaridan biri. Chunki, ta‘lim-tarbiyasiz yoshlarni barkamol, maqsadga intiluvchan, o‘z taqdiri uchun javobgar shaxs etib tarbiyalash mushkul.*

*Ko‘rinib turibdiki, insonning, jumladan yoshlarning o‘zini rivojlantirmasdan turib, jamiyat oldida turgan jahonshumul, murakkab masalalarni hal qilib bo‘lmas ekan. Darhaqiqat, bu dolzarb masalalarni hal qilishda inson aql-idroki, tafakkuri, dunyoqarashining rivojlanishi bilan bog‘liq dialektik jarayon mavjudki, u inson ongi, aql- zakovati, ijtimoiy faolligi, axloqiy-xuquqiy bilimdonligi, xalq, millat, jamiyat oldidagi mas‘uliyatini anglash va maqsadli hal etishni taminlaydi.*

*Shu o‘rinda e‘tirof etish joizki, inson aql-idroki, tafakkuri, dunyoqarashi, ongi, ma‘naviy-ahloqiy salohiyatining rasmlanishiga poydevor, umumiy o‘rta maktab o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida qo‘yiladi. Shu bois ham hozirgi kunda “Yangi O‘zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanadi” shiori mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy taraqqiyoti, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotining asosini tashkil etayotganligi bejiz emas.*

*Har tomonlama barkamol, o‘z sohasining bilimdoni, zamonaviy o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan kadrlargina Vatanimiz istiqbolini ta‘minlashga faol qatnasha oladi. Shu sababdan ham*

*uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Umumta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishdan maqsad, o'quvchilarning fanga bo'lgan barqaror qiziqishlarini kuchaytirish, ularning fan asoslarini keng va chuqur egallashlariga erishish orqali komil inson qilib tarbiyalashni nazarda tutilgan.*

*Barkamol, komil inson tarbiyasida umumiy o'rta maktabning o'quv rejasidan o'rin olgan filologiya, ijtimoiy, aniq, tabiiy va iqtisodiy, amaliy fanlar muhim ijtimoiy – pedagogik ahamiyat kasb etadi. Amaliy yo'nalishda chizmachilik fani yosh avlodda tadbirkorlik, ishbilarmonlik, bunyodkorlik, yaratuvchilik fazilatlarini rasmlantiruvchi, rivojlantiruvchi fan hisoblanadi. Zero, bu fan geometrik obrazlar, xayoliy tasavvurlardan bilish faoliyati to'g'risida tushunchalarni bayon etib, yoshlarning tafakkuri, tasavvurlarini rivojlantiradi. Ma'lumki, har qanday yaratuvchilik insondan o'zining xayoliy tasavvuriga suyangan holda ijodiy yondashishni yo'lga qo'ya oladi. Bunday ijodkorlikni rasmlantirishda chizmalarni chizish, ularning ko'rinishlarini xayoliy tasavvur qilish ulkan ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu to'g'risida esa faqatgina tasviriy san'at fanlari ko'proq ma'lumot berishga qodir.*

*Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jaxonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rnini bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zarishlar bo'lmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini*

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. Manba:

*o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritiladi.*

*Rang orqali natyurmort ishlash tasviriy san'atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, kompozisiya, yorug'-soyalarni o'rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi.*

*Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Talabalar suratlarda chizilgan tarixiy va zamonaviy voqealarni, personajlarning kechinma va xarakatlarini, shuningdek tabiat go'zalliklarini chuqur idrok etadilar.*

## **Tasviriy san'atning tur va janrlari.**

### **Tasviriy san'atning tarbiyaviy ahamiyati.**

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfn ing ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmuni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jaz, dastgohli turlarga bo'linadi.


Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.



Mo'jaz san'at asarlari Turli mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalar ga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabi-

larga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo‘yoq, guash, suvbo‘yoq, tempera bo‘yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o‘rnatilib ishlanadi.



Grafika – lotincha «grafo» so‘zidan olingan bo‘lib, «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko‘mir, pastel, sangina, suvbo‘yoq, guash va



tushda ishlangan bezak lar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va hakoza kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san'at turlaridan biri. U lotincha «skulpo» soʻzidan olinib, qattiq materiallarga «qirgʻish, kesish, oʻyish, taroshlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.



### **Tasviriy san'at janrlari haqida qisqacha tavsif.**

**Janr** soʻzi fransuz tilidan – tur koʻrinish degan maʼnoni anglatadi. Umumiy tushunchasi bu – chegaralangan mavzuni oʻzida aks ettiradigan sanʼat asarlari. Masalan: manzara, tabiat koʻrinishlarini aks ettiradigan rasmlarni manzara janriga oid rasmlar deyiladi.

Alohida yoki odamlar to'pini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyilsa, meva, gul, uy buyumlari va shunga o'xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va hokazolar.

**Portret janri**—rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi. Inson qiyofasini ichki psixologik olami bilan bog'langan holda aniq, bir obrazda yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi. Portretda insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin.

Darhaqiqat, har bir insonning ichki dunyosi, go'zalligi, tabiat ato etgan andazasi mavjud. Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog'i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiyyik yoki soxta jihatlarini tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak. Tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan san'atning boshqa sohalaridan birmuncha farq qiladi. Portret san'ati o'z ornida animalistik janr bilan o'zaro hamo - hang uyg'unlikda bog'lanib, betakror go'zal asarlar yaratiladi. Javlon Umarbekovning "Qo'shiq" nomli asari shunday asarlar sarasiga kiradi. Portret san'atini yaratishda bebaho yutuqlarni qo'lga kiritgan buyuk rassomlardan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Chingiz Axmarov va boshqa bir qancha rassomlarni misol qilib keltirish mumkin.

**Natyurmort janri**—fransuzcha so'z bo'lib, «*jonsiz tabiat*» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llanadigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi.

U o`z asarida tevarak - atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uningxarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro`y berayotganligini ham ko`rsata oladi. Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o`rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterli o`zlashtirish san'atning boshqa jihatlarini va turlarini o`rganishdagi dastlabki saboqlardir. Lekin bu natyurmort san'at sifatida faqatgina boshlang'ich vazifa bo`lib qoladi, degan ma'noni bermaydi, vaholanki natyurmortning san'at darajasida yaratilishi o`ziga xos murakkab va katta maktabni talab qiladi. Qushlar ishtirokida tushilgan natyurmort asarlari esa kishilarga estetik did bag'ishlab go`zallik sari chorlaydi. Tasviriy san'at tarixida Vilyam Klass Xeda, Jan - Batist - Simon Marden, Frans Snayders, Yanvan Geysum, Rahim Ahmedov, Akmal Ikromjonov-larning o`z o`rni bor .

**Manzarajanri** – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko`rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni tog`u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo`lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O`.Tansiqboyevning «O`zbekistonda mart», «Jonajon o`lka», «Mening qo`shig`im», N. Kashinaning «Tog`da bahor», Z.Inog`omovning «Arpa o`rimi», «Choyga», R.Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug`bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi. Tarixiy janrdagi asarlarda tarixiy voqealar, tarixiy obrazlar aks ettirilsa, batal janrida tarixiy jang voqealari, ha rbiy obrazlar tasvirlanadi.

**Animalistik janr** - tasviriy san'atning o`zgacha turidir. U lotincha «anima», «hayvonot olami» degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo`r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo`lgan. O`sha davrda ular g`orlarning devorlariga kiyik, qo`tos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozisiyalar yaratishda

asosiy hisoblangan, XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A.Dyurerlar ishladilar. Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli dustlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

**Batal janr** – «*batal*» fransuzcha so'z bo'lib, «*jang*», «*urush*» ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Batalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Grekov, G.K.Saviskiy, A.A.Deyneka, V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabiyevning “Spitamyen qo'zg'oloni”, musavvir R.Rizamuxammyedovning “Muqanna qo'zg'oloni”, musavvir T.Sodiqovning “Tumarisning qasosi” nomli asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

**Maishiy janr-tasviriy san'atda** bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o'zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari - Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo'ladi. Realistik rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Saviskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. O'zbek rassomlaridan R. Ahmedov, M. Saidov Z.Inog'omov, R.Choriyev, G'.Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etib keldilar.Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida esa hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam, yarmi ot “kentavrlar”, yarmi ayol yarmi baliq suv parilari, yarmi ayol, yarmi qush jonzotlar, bir ko'zli baxaybat devlar va hokazolar tasvirlanadi.Afsonaviy janr tasviriy san'atning hamma turlari (rangtasvir, haykajaroshlik, grafika)da keng qo'llanadi. Afsonaviy janrda ijod

qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi Sulton Muxammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnesovlarni kiritish mumkin.

**Dengiznavislik janri.** (Marinizm) marina fransuzcha soʻz boʻlib, *“dengiz koʻrinishi”* maʼnosini bildiradi. Marinizm — yaʼni dengiznavislik rangtasvirning turi sifatida Yevropa sanʼatida alohida oʻrinni egallaydi. Dengiz, dengiz hayotidagi muhim voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda ushbu yunalish muhim ahamiyat kasb qiladi. Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Porsellis, S.de Vliger, X.Sigers va boshqalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanada kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan bogliq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirishda samarali ijod qildilar. Dengiz koʻrinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy, animal janrdagi suratlarning orqa planida ham tasvirlanishi mumkin.

**Nyu janri-** *“Nyu”* soʻzi fransuz tilidan olingan boʻlib, *“yalangoch”* degan maʼnoni anglatadi. *“Nyu”* portret janridan ajralib chiqib, mustaqil ahamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar koʻpincha yalangoch ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni koʻrsatmoqchi boʻladilar. *“Nyu”* portret janri kabi yakka yoki koʻp figurali bulishi mumkin. U tasviriysanʼatning barcha turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika)da keng qoʻllaniladi.

**Inteyrer janri.** Bu janrda binolarning ichki koʻrinishi, foye, yoʻlak, xonalarning oʻziga xos jihatlari, ulardagi jihatlar, bezaklar va gullar tasvirlanadi. Animalistik janrini tasviriy sanʼaning barcha tur va janrlari bilan boʻgʻliqlik tamonlari borligini bilamiz. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, meʼmorchilik tasviriy sanʼat turlarida hayvonot olami va qushlar koʻrinishi bevosita uygʻunlashib goʻzal asarlar yaratilganini koʻp bora uchratishimiz mumkin. Tasviriy sanʼat janrlarida ham bunday oʻxshashlik tamonlari kuzatiladi.

**Afsonaviyjanr.** Afsonaviy janrdagi tasviriy sanʼat asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan oʻylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar voqea, hamda hodisalar

tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, norasida qanotli bolalar, uchboshli ajdarlar, yarmi odam, yarmiot “kentavrlar”, yarmi ayolyarmibaliq, rusalkalar, yarmi ayolyarmi qushjonzotlar, odam shaklidagi shoxli ko‘zi bitta bahaybat devlar kabilar tasvirlanadi.



## **PORTRET**

**PORTRET**- san'ati qadimda paydo bo'lgan. Portret fransuzcha portrait so'zidan tarjima qilinganda “tasvir” degan ma'noni bildiradi. Portret-tasviriy san'ati janri hisoblanadi. Real hayotda mavjud bo'lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo bo'lgan hayotiy qiyofalarning tasviri. Portret rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek foto, san'atchining muhim shartlaridan biridir. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (modem, asli)ga aynan o'xshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, kasbi, jamiyatdagi hayotdagi o'rnini, kasbi,

mavqirini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi. Portret tarzida tasvirlanish faqat bosh qismi, beligacha, butun bo'y basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Portret janridagi bir asarda ko'pincha bir necha janrlar qo'shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, yani atrof muhitni ekas ettirmasdan) tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muhitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda portretni portret va portret kartina (janrli portret)ga ajratiladi.

Qadimiy Misrda portretning noyob namunalari (haykaltaroshlikda — Exnaton, Nefertiti va b. haykallar) yaratiladi. Yunonistonda shoir, faylasuf va davlat arboblarning umumlashma, ideallashtirilgan haykal portretlari ishlandi (haykaltarosh Alopekli Demetriy, Lisipp va b.), ellinizm davrida dramatik obrazlar yaratishga intilish kuchaydi. Antik davr haykaltaroshlik portreti Qadimiy Rim san'atida yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, aniq shaxsga e'tibor oshdi. portretda shaxsning individual fazilatlarini aniq ko'rsatish, ruhiy kechinmalarini ochish jarayoni sezilarli o'rin egalladi, haykal va byustlar bilan bir qatorda tanga va medallar, gammalarga portret, shuningdek, rangtasvir portret ishlash keng tarqaldi. Dastgoh portretining rangtasvir namunalari bo'lgan fayyum portretlari (Misr, I-IV-asrlar) ham antik san'at an'analari ta'sirida rivojlandi.

Uyg'onish davrida portretning rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika turlari yuksak taraqqiy etdi. Faol, o'z qadr-qimmatini biladigan qo'rqmas, jasur inson qiyofasi bu davrning bosh qahramoniga aylandi. Borliqni ilmiy asosda o'rganish va shu bilimlarni amaliyotda qo'llashga intilishlar portretning yangi tizimini yuzaga keltirdi. Endilikda tasvirlanuvchi noreal makon va muhitda emas, balki insonga yaqin bo'lgan tabiat qo'ynida aks ettirildi. Yuksak Uyg'onish davri buyuk ijodkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael, Jorjone, Titsian, Ya. van Eyk, Rogir van der Veyden, A. Dyurer, Katta Lukas Kranax, Kichik Xolbeyn va boshqalar portretdagi obrazlar mazmunini chuqurlashtirdilar, XVII asrga kelib demokratik

qarashlarning ortib borishi insonga chuqur muhabbat bilan sug`orilgan, nozik his-tuyg`ularni anglash va tasvirlashga qaratilgan to`laqonli va harakatga boy portretlarni maydonga keltirdi, guruh portret rivojlana boshladi (Rembrandt, Xale va b.). Avtoportret shu izlanishlar mahsulidir, rassom inson ruhida bo`ladigan o`zgarishlarni o`z qiyofasida, qarash, yuzdagi mimik o`zgarishlarda ifodalashga harakat qildi. XVIII asrportretida shaxsning ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi o`rni haqqoniy aks eta boshladi (Fransiyada — J. B. S. Sharden, J. A. Sharq (O`rta Osiyo, Afg`oniston, Eron, Hindiston va b.) miniatyura san`atida portretning nodir namunalari yaratilgan (Rizo Abbosiy va b.). Jumladan, o`zbek portret san`ati ham boy tarixga ega. Bu san`at namunalari qad. va o`rta asrlar san`atida uchraydi (Yunon-Baq-triya, Xorazm, Kushan podsholarining haykal va tanga yuzalariga ishlangan bo`rtma tasvirlari), Amir Temur va temuriylar, Shayboniylar hamda Boburiylar davri san`ati (Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va b.)dagi miniatyuralarda ma`lum darajada taraqqiy etgan. Nafis (mo`jaz rasm) miniatyura taraqqiyoti davomida bir asar ustida bir necha san`atkorlar ijodiy hamkorlik qilgan, kishilar qiyofasi, yuzini tasvirlovchi musavvir nomiga chehrakushoy (yuzni ochuvchi) yoki chehra so`zi qo`shilgan. Ayniqsa, boburiylardan Akbar va Jahongir davrida ayrim shaxslar tasviri bilan birga guruh (ko`plab a`yonlar ishtirokidagi) portret yaratish taraqqiy etgan. Ushbu portretlardan keyinchalik yevropalik rassomlar (Rembrandt, J. Reynolds va b.) ma`lum darajada o`rgangan, ilhomlangan. XX asrning XXX-50 yillaridan zamonaviy rangtasvirdagi portretrivojlandi. Shu davrda portretning hamma ko`rinishlari (portret, avtoportret, guruh portret, portret-kartina, tarixiy portret va h.k.)da asarlar yaratildi. Bahrom h&isamhhy, L. Nasridsinov, Sh. Hasanova, A. Abdullayev, O`.Sharq (O`rta Osiyo, Afg`oniston, Eron, Hindiston va b.) miniatyura san`atida portretning nodir namunalari yaratilgan (Rizo Abbosiy va b.). Jumladan, o`zbek portret san`ati ham boy tarixga ega. Bu san`at namunalari qadimiy va o`rta asrlar san`atida uchraydi (Yunon-Baqtriya, Xorazm, Kushan



podsholarining haykal va tanga yuzalariga ishlangan boʻrtma tasvirlari), Amir Temur va temuriylar, Shayboniylar hamda Boburiylar davri sanʼati (Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va b.) dagi miniatyuralarda maʼlum darajada taraqqiy etgan. Nafis (moʻʼjaz rasm) miniatyura taraqqiyoti davomida bir asar ustida bir necha sanʼatkorlar ijodiy hamkorlik qilgan, kishilar qiyofasi, yuzini tasvirlovchi musavvir nomiga chehrakushoy (yuzni ochuvchi) yoki chexra soʻzi qoʻshilgan. Ayniqsa, boburiylardan Akbar va Jahongir davrida ayrim shaxslar tas-viri bilan birga guruh (koʻplab aʼyonlar ishtirokidagi) portret yaratish taraqqiy etgan. Ushbu portretlardan keyinchalik yevropalik rassomlar (Rembrandt, J. Reynolds va b.) maʼlum darajada oʻrgangan, ilhomlangan. XX asrning XXX-50 yillaridan zamonaviy rang-tasvirdagi portret rivojlandi. Shu davrda portretning hamma koʻrinishlari (portret, avtoportret, guruh portret, portretkartina, tarixiy portret va h.k.)da asarlar yaratildi. L.Nasridsinov, Sh.Hasanova, A.Abdullayev.XX asrning ikkinchi yarmida oʻzbek portret sanʼati yuksalib rivojlandi.Portret sohasini Lutfulla Abdullayev, Abdulhaq Abdullayev, Raxim Axmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib kelmoqdalar.Lutfulla Abdullayevning «Mulla toʻychi Toshmuxamedov», «Y.Axunboboyev» portretlari realistik anʼanalarda mohirona tasvirlangan. Abdulhak Abdullayev birinchi oʻzbek portretchi rassomlardan biri boʻlib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U oʻz zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni adabiyot va sanʼat namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Portret mazmuniga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi: kalla portreti, koʻkrak qiyofali portret (byust), yarim gavda portret, butun gavda qiyofasi portreti, portret kartina, guruhli portret, miniatyura portreti va hokazo. Portret kompozitsiyasining tuzilishida insonning tashqi va ichki qiyofasi, uning ruhiyati, shuningdek koʻli, oʻtirish holati, liboslari, interyerdagi predmetlar asosiy vosita sifatida muhim roloʻynaydi. Har bir rassom portret yaratishda oʻz tajribasi, usuliga tayanadi. Bunga har xil kutilmagan holatda, rang va texnikada

bajarilgan portretlar dalil bo‘la oladi. Bahodir Jalolovni kinorejissyor «Komil Yormatov» portreti shu fikrimizni tasdiqlaydi. Portret yaratishda yoshlar ulug‘ portret ustalari tajribasini o‘rganib. Ularda unumli foydalanishlari lozim. Portretchi rassom avval tasvirlanuvchi bilan chuqurroq tanishib, bir muncha davrda uni kuzatib, suhbatlashib, uni asosiy harakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yaxshi o‘rganishi kerak, M. Nesterovning shogirdi portret Korin doim bu amallarga sodiq qolib A.Tolstoy, N.Kachalov, M.Nesterov, N.Sar‘yan portretlarni shu tarzda yaratdi. Rahim Axmedov portret janrida hayotga chuqurroq yondoshdi. Inson ichki kechinmalarini, xis-tuyg‘ularini, orzularini, insonning go‘zallik qalbini o‘z asarida ochib beradi. Uning «Ona o‘ylari», «Suxandaryolik ayol», «Dehqon portreti» yorqin misol bo‘la oladi. Malik Nabiyev asosan portret janrida zamondoshlari bilan bir qatorda tarixiy allomalar obrazini xam yaratish ustida ko‘p mehnat qiladi. U 1952-yili «Beruniy» obrazini yaratdi. 1993-yili buyuk sarkarda «Amir Temur portreti»ni yaratdi. Portret kompozitsiyasini yaratishda rassomlarning o‘ziga xos uslubi mavjud, u adabiy qo‘lyozma, etnografik xujjatlardan unumli foydalanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek portret san‘ati yuksalib rivojlandi. Portret soxasini Lutfulla Abdullayev, Abdulxaq Abdullayev, Rahim Axmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib kelmoqdalar. Lutfulla Abdullayevning «Mulla to‘ychi Toshmuxeamedov», «Y.Axunboboyev» portretlari realistik an‘analarda mohirona tasvirlangan. Abdulhaq Abdullayev birinchi o‘zbek portretchi rassomlardan biri bo‘lib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U o‘z zamondoshlari, ziyolilarni, olimlarni adabiyot va san‘at namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi

***XX asrning ikkinchi yarmida O`zbekiston rangtasvir san`atida  
portret janrining tutgan o`rni.***

XX asrning ikkinchi yarmida front safaridan qaytgan O`rol Tansiqboyev ijodiga mansub “Urush izidan” rangtasvir asarlari turkumi jangu-jadal voqealariga to`la bo`lgan, og`ir yillar haqidagi xotira bo`lib qoldi. Lutfulla Abdullaevning mehnat va urush qatnashchilariga bag`ishlab ishlagan ko`plab portretlari, Chingiz Axmarovning “Sovg`a yig`ish” polotnosi, Vladimir Ufimsevning jangnoma polotnolari va harbiy natyurmortlari, Zinaida Kovalevskaya, Pavel Benkov, Nadejda Kashina, O. Tetovasyan va shu kabi boshqa ko`plab rassomlarning hakm jang manzaralarini ifodalovchi asarlari ham shunday asarlar jumlasiga kiradi.

“O`zbekiston rassomlari Ulug` Vatan urushida” esdaliklari albomida O`zbekiston xalqining front ortidagi og`ir va fidokorona mehnati, o`zbek o`g`lonlarining jang maydonidagi jasoratlari aks ettirilgan. Ko`plab rassomlarning urushdan keyingi yillardagi ijodlarida og`ir sinovlarda g`alabaga erishgan inson obrazini, uni xarakteridagi tipik fazilatlarni ochishda umumlashgan ko`rinishlar paydo bo`ldi.

Lutfulla Abdullaevning “Askarning qaytishi”, Vladimir Kaydalovning “Saxalin yo`nalishida”, Pavel Benkovning “Yana Vatanda”, Vladimir Ufimsevning “Partizancha” va shu kabi boshqa ko`plab asarlar xuddi shu ruxda yaratilgan.<sup>2</sup>

XX asrning ikkinchi yarimi O`zbekiston tasviriy san`atiga Leningrad (hozirda Sankt-Peterburg shahri) rassomchilik Akademiyasini tamomlagan Raxim Axmedov, Mannon Saidov, Tetovas Oganegov, Ne`mat Qo`ziboev, Ro`zi Choriev, Valeriy Zelikov, Moskva san`at oliy o`quv yurtlarini bitirgan Yuriy Elizarov, Vladimir Jmakin, Vladimir Sosedov, Eduar Kalantarov, Narimon Rahimboev va shu kabi boshqa ko`plab mahalliy rassomlar kirib kelishdi. Toshkentda Nikolay Oatrovskiy nomidagi Teatr va

---

<sup>2</sup>O`zbekiston tasviriy san`ati. Albom-katalog: Tuzuvchilar: M.Myuns, D. Faxretdinova . T.; 1976.8-bet.

rassomchilik instituti ochilganidan keyin esa ularning soni yanada keskin ortib bordi.

Tasviriy san`atda barcha tur va janrlarning mavzu doirasi birmuncha kengaydi, mazmunan teranlashdi. Biroq, rassomlarning aksariyati asosan naturalistik va realistik xarakterdagi badiiy asarlar ishlash chegarasidan chetga chiqaolmadi. Chiqqan rassomlarining asarlari esa “sotsrealizm” g`oyalariга zid asarlar deb qaraldi, ko`rgazmalarga yaqinlashtirilmadi, mualliflar esa qattiq tanqid ostiga olindi.

Rassomlar ijodida xalq o`tmishi aslidan ko`ra boshqacha tarzda, ya`ni zamonga mos ravishda, partiya siyosati talab qilgan darajada yangicha talqin etildi. Inqilob va fuqarolar urushi mavzulari ko`klarga ko`tarib, olqishlandi. Bularga “Hamza”, Ro`zi Choriyevning “Amirlikning emirilishi”, Vladimir Jmakinning “Paranji kuydirish”, “Hamza frontda”, G`ani Abduraxmonovning “Yangi xo`jayin”, Mannon Saidovning “Yigirmanchi yillar”, Nadejda Kashinaning “Bolalar yangi hayotga qadam bosyaptilar”, Baxtiyor Boboevning “Temir yo`l bekatida” kabi juda ko`plab asarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Rangtasvirning barcha sohalarida bo`lgani kabi portret janrida ham rassomlar zamondoshlarining yaratuvchanlik mehnati mavzusiga ko`proq murojaat qildilar. Buning uchun rassomlar mehnat mavzusi ko`lamini kengaytiruvchi, ijodkor-yaratuvchi insonni ulug`laydigan asrlar yaratishga qattiq kirishdilar. Portret janri psixologik va badiiy jihatdan birmuncha boyidi. Naturadan ishlangan etyudnamo xarakterga ega bo`lgan portretlar va naturalistik uslubdagi portretlar o`rnini endilikda inson ruxiyatiga chuqur kirib borishga intilish bilan bir vaqtning o`zida yorqin individual va tipik obrazlarni yaratish egalladi.

Bunday asarlar sirasiga Abdulhaq Abdullaevning “Abror Xidoyatov Otello rovida”, “Yozuvchi Oybek”, “Akademik T. Qori Niyoziy”, Raxim Axmedovning “Ona o`ylari”, “Keksa kolxozchi portreti”, “Aktyor Olim Xo`jaev portreti”, “Rassom Qutlug`Basharov”, Valeriy Fadeevning “Duradgor”, “Keksa kolxozchi Zulunbuva”, Tetovas Oganosovning “Yozuvchi S. P. Borodin portreti”,

“Haykaltarosh Makarov”, Yuriy Elizarovning “Yozuvchi Sadridin Ayniy portreti”, Chingiz Axmarovning “Temurov portreti” kabilarni kiritish mumkin.

Portretchi rassomlar ijodida buyuk bobolarimiz siymosiga murojaat qilish, ularning obrazlarini yaratish ham ma`lum ahamiyat kasb eta boshladi. SHu o`rinda Vladmir Kaydalovning “Alisher Navoiy”, Malik Nabiev va Ro`zi CHorievlarning “Abu Rayhon Beruniy” portretlari hamda birinchi o`zbek rassom-ayoli Shamsiroy Xasanovanning “Qashqar shoirasi Mutriba portreti” va boshqa shu kabi o`zbek xalqining buyuk allomalari, shoirlari obrazlarining yaratilganligini bunga misol qilib ko`rsatish mumkin.

Biroq, bu asarlarning barchasidagi obrazlarda norozilik, tushkunlik kayfiyati bordek tuyuladi. Ularning barchasida, qaysi rassom ishlashidan, kim tasvirlanishidan qat`iy nazar g`amgin, tashvishli yuz-ko`zlarni ko`ramiz. Yuqorida nomlari keltirilgan asarlarni birortasida quvnoq kayfiyatni, shodon obrazni uchratmaymiz. Chunki, san`atni sinfiyligi, Sobiq Ittifoq Partiya siyosati rassomlar erkini chegaralab, rangtasvirni ham bir qolipdagi, mutloq majburiy san`atga aylantirib qo`ygan edi. Milliylikni o`z ijodida aks ettirgan rassom esa “millatchi” sanalgan va qattiq ta`ziq ostiga olingan. Tasviriy san`atda ham davrga mos ravishda, tom ma`noda turg`unlik davri hukmronlik qilar edi.

Bu davrdagi dastgohli rangtasvir san`ati ham grafika, plakat san`ati singari “targ`ibot rejasi” deb nomlanuvchi mafkura hukmronligi asosida shakllandi. Ana shunday bir davrda, tasviriy san`atning siyosiyashtirilgan qobig`ida ishlash, ijod qilish hammadan ko`ra rassomlar uchun juda ham qiyin kechdi.

Shunga qaramasdan juda ko`plab portretchi rassomlar qadimiy udum va an`analarni o`zida mujassam etgan. Badiiy qiymati yuqori bo`lgan kompozitsiyalar ishladilar. Ulug` mutaffakirlar, olimlar, qatag`on qurbonlariga bag`ishlangan asarlar yaratish boshlandi. Bu o`z-o`zidan bo`lmadi, buni zamirida xalqimizning mustaqillik haqidagi azaliy orzusi yotar edi.

Xulosa o`rnida bu davrga qiyosiy baho berar ekanmiz, 1950-yillarda Chingiz Axmarovning chiziqli rangtasviri va 1970-yillar boshlaridagi Shuhrat Abdirashidov, Alisher Mirzayev, R. Shodiyevlarning yorqin ranglar gammasida bajargan asarlari diqqatga sazovvor bo`lgan deyishimiz mumkin. A. Mirzaev va R. Shodiyevlarning asarlari – shaklning erkin o`yini, rang va nurning kutilmagan ko`rinishi, ba`zan esa ranglarning qarama-qarshi qorishiqlari, o`ta bezakdorlik, an`anaviy xalq san`atiga tayanganligi bilan ajralib turganligini ko`ramiz.

### ***Portret janrida tarixiy shaxslar obrazi.***

Mustaqillikning qo`lga kiritilishi va yangi mafkuraning o`z mavqeiga erishishi natijasi o`laroq, milliy tarix qayta jonlandi. Davlatimiz ravnaqi va mustaqilligini qo`lga kiritishga ulkan xissa qo`shgan O`zbekistonning ko`zga ko`ringan madaniyat va tarix namoyondalari siyosiy unutishdan va yo`qlikdan qayta tug`ilishi bilan san`atda ularning portretlari galereyasi vujudga kelishiga turtki bo`ldi.<sup>3</sup>

Buyuk Sohibqiron Amir Temur obraziga respublikaning barcha rassomlari murojaat qildilar desak mubolag`a bo`lmasa kerak. Bular orasida yirik rassomlar, akdemiklar Malik Nabiev va Ne`mat Qo`ziboevlarning ijodini alohida ta`kidlash lozim. Chunki, bu rassomlar o`ziga ishongan, xalqini g`amini eydigan, odil, jahongir hukmdor siymosini yarataoldilar. Ustoz Malik Nabiyev tomonidan 1999 yilda yaratilgan Amir Temur obrazi o`zining sehrli jozibasi va kuchli ifoda vositasi, ta`siri bilan zamonaviy rassomning tarixiy portretlari orasida o`ziga xos mumtoz asarga aylandi va etalon sifatida qabul qilindi. Keyinchalik Toshkent shahri va viloyatlarga qo`yilgan Sohibqiron Amir Temur haykallariga ham aynan ushbu portret asos bo`lib xizmat qildi.

Temuriylar sulolasining boshqa vakillari ham portretchi rassomlar tomonidan katta qiziqish va ishtiyoq bilan tasvirlandi. Malik

---

<sup>3</sup>Mualliflar uyushmasi. O`zbekiston san`ati (1991-200-yillar ). T.; 2001. 34-b.

Nabiyev mo`yqalamiga mansub bo`lgan Zahiriddin Muhammad Bobur portreti romantik xarakterga ega bo`lib, unda Bobur qo`liga qalam olib ijod jarayonida, ko`zlari esa olis masofalarga qadalgan holatda aks ettirilgan. Bobur siymosi Aziza Mamatova polotnosida ham ajoyib shoir sifatida o`ziga xos tarzda talqin etilgan. Taniqli portretchi rassom S.Rahmetov Temriylar davri tarixiy shaxslar obrazlarini mahorat bilan yaratadi. O`zbekiston Milliy Banki va Temuriylar tarixi Davlat muzeyi 1999 yilda etakchi portretchi rassomlar ishtirokida Temuriy shahzodalar portretlari tanlovini e`lon qiladi.

Andijonlik rassom Ulug`bek Boltaboev tomonidan ham Bobur va Temuriy shaxzodalarning portretlari ishlanadi. Ayniqsa, rasomning Bobur siymosiga juda ko`p marotaba murojaat qilinishi bilan alohida ajralib turadi. Rassomning “Bobur ovda”, “Bobur Samarqandda”, “Bobur Xindistonda” kabi ko`plab asrlari misol bo`laoladi. Temuriy malikalar siymosiga bag`ishlab ishlangan turkum portretlar Orif Muinov mo`yqalamiga mansub asarlar sirasiga kiradi. Bu portretlarda rassom Sharq ayollari (“Bibixonim”, 1997)ga xos shoirona va jozibali jihatlarni aks ettiradi.

Bundan tashqari bu davrga kelib san`at va madaniyat arboblarning obrazlarini yaratish ham rassomlarda katta qiziqish uyg`otganligini ham quvonch bilan ta`kidlash lozim. Temuriylar davri buyuk minatyurachi rassomi Kamoliddin Behzod ishlagan va hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan portreti Akmal Ikromjonovning “Kamoliddin Behzod” (1990) rangtasvir kompozitsiyasiga hamda Abdulhaq Abdullayevning Alisher Navoiyiga (1997) bag`ishlangan polotnolariga asos bo`lib xizmat qildi. Chingiz Axmarov esa shoira Nodiraning (1992) go`zal va latif qiyofasini yaratdi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish jarayonida rassom oldida juda ham mushkul vazifa turadi. Chunki, barcha tarixiy shaxslar haqida, ularning tashqi ko`rinishi, qiyofasi to`g`risida hamma vaqt ham etarli darajada ilmiy manbaalarni topish juda qiyin hisoblanadi. Portretni naturadan ishlash boshqa, xayolan, tasavvur asosida ishlash esa

butunlay boshqa hisoblanadi. Qolaversa, ushbu portret orqali muayyan bir tarixiy davrga ham, odamlarning turmush tarziga, u davr kishisining tashqi qiyofasi, kiyinishiga ham baho beriladi. Natijada esa o`zida zamonasi ruxini umumlashtirgan ramziy portretlar ham vujudga kelgan. T.Kuryazov va E.Masharipovlarning “Jaloliddin Manguberdi”ga (1997) bag`ishlangan asarlari, M. Yo`ldoshevning “Alpomish” (1998-2000) dostoni qahramonlariga bag`ishlangan turkum ishlari, E. Masharipovning “Alpomish” (1998), Q. Basharovning “Spitamen” polotnolari shular jumlasidan hisoblanadi. Tarixiy merosimizni yoritishga 2000 yilda bo`lib o`tgan “SHaxidlar xotirasi” ko`rgazmasida “Jadidlar” portreti turkumlari bilan ishtirok etgan A.Ikromjonov, T.Qo`ziyev, M.Nuriddinov, S.Raxmatov kabi ras-somlar ham katta hissa qo`shganlar.

Ushbu portretlarni yaratishda tarixiy-ilmiy manbaalar va liboslar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrga mansub bo`lgan yozma manbaalar, me`moriy obidalarni aks ettirilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fikrni tasdiqlashda A. Aliqulovning etnografiyaga urg`u berilgan – ya`ni maishiy hayot buyumlari, o`sha davr binolarining intereri, kashtachilik, gilamdo`zlik, liboslaru, qurol-aslahalarni qunt bilan ishlagan “Asov ot”, “Dor”, “Mashshoqlar” (1997) kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

1990 yillarda portret janrida sermaxsul ijod qilgan rassomlar sirasiga Baxodir Jalolovni qo`yish mumkin. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, realistik asarlar yaratishda u mislsiz darajada yutuqlarga erishadi va bu borada unga hech bir boshqa rassom tenglasha olmaydi. Rassomning 1992 yilda ishlagan “Saudiya Arabistoni qiroli Araviy Faxd ibn Aziz”, 1998 yilda yaratgan “Akademik Sarvar Azimov portreti” va shu kabi boshqa ko`plab asrlari musavvirning o`zbek rangtasvirchi rassomlar orasida dunyo talablari darajasida va undan ham yaxshiroq asar yaratuvchi rassomlari borligidan dalolat berib turadi.

S. Raxmetov ijodida portret asosiy o`rinini egallaydigan rassomlar sirasiga kiradi. Rassomning asr oxirlarida yaratgan eng



yaxshi portretlari “Yunus Rajabiy portreti” (1993), “Germaniyaning O`zbekistondagi elchisi G. Kun portreti” (1999) hisoblanadi.

### **Manzara janri**



"Big Sur Vista 22x30"

**Manzara janri-** tasviriy san’atda tabiat, shahar, industrial, interyer ko‘rinishlarini tasvirlanishi manzara janrga taaluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko‘rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo‘ladi. Ba’zan bu ikki hol bir asarda bo‘lishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo bo‘lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini Qadimgi Sharq va Krit orollari misolida ko‘rish mumkin. Masalan, eramizdan avvalgi asr Beni-Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushik ovi tasvirlangan. Bu janr esa mustaqil ravishda Xitoyda 6 asrda paydo bo‘lgan. Evropa san’atida esa O‘yg‘onish davrida ilmiy asosda ya’ni chiziqli va xavo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo‘lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin. Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I. Levitan, I. Shishkin, O‘. Tansiqboev, I. K. Ayvazovskiy, N. Karaxan kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Manzara janrining ko‘rinishlaridan biri bu interyer hisoblanadi. U binolarning ichki qism ko‘rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida uchraydi. Ular o‘z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida interyerni tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilgan Jotto, A. Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar shuxrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko‘rinishi bu dendiznavislik janridir. Unda asosan dengiz ko‘rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I. Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo‘lgan. U o‘zining umrini faqat dengiz ko‘rinishlarini tasvirlashga bag‘ishladi. Uning “To‘qqizinchi val”, “Chesmen jangi”, “Qora dengiz”, “To‘lqinlar orasida” kabi asarlari jahon tasviriy san’atida munosib o‘rinni egalladi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa jairlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazo. Manzara janri ko‘proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo‘llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara asosan uning relief turida ishlatiladi. Haykaltaroshlikda manzara ko‘rinishlari asosiy emas, balki to‘ldiruvchi, qo‘shimcha ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’atda tabiatni tasvirlash manzara janri deyiladi. Manzarachi musavvirlar o‘z asarlarida ifodalagan obrazlari orqali tabiatni sevishga, e‘zozlashga va bu go‘zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar. Manzara faqatgina tabiat go‘zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g‘oya va fikrlarni ham ilgari suradi. Ijodkor-musavvir har doim tabiatni sinchikovlik bilan o‘rganmog‘i va tafakkurini oshirib bormog‘i zarur.

Manzara ustida ish boshlar ekansiz, tasvirga olmoqchi bo‘lgan tabiatning o‘sha qismi holatini yaqqol his qilmoq zarur. Manzaraga tushayotgan yorug‘likning to‘g‘ri aks ettirishi uni bir qadar jonlantirib, ta’sirchanligini oshiradi. Manzarada fazoni idrok qilishning bu hususiyatlari bois, u planlar deb yuritiluvchi bo‘laklarga ajratiladi. Odatda manzaraning uch plani belgilanadi, biroq u kompozisiyaning tuzilishiga qarab bundan ko‘proq yoki kamroq bo‘lishi ham mumkin.

Ranglar birinchi planda eng to‘q, ikkinchi planda ochroq ranga kirib, oqish tus oladi va uchinchi planda uzoqliklar havorangga aylana boradi. Havoning tumanli va bulutli paytlarida bu farqlar quyoshning charog‘on paytiga nisbatan yanada sezilarliroq bo‘ladi. Tabiat o‘zining boy rangi va poyonsiz tulari bilan bizni lol qoldiradi. Bu rang-barangliklar manzaraga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan rangga umumlashadi va koloritni belgilab beradi. Asar koloriti inson his-tuyg‘ulariga zamin yaratib beradi

Kolorit manzarada boshqa janr asarlariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etib, kompozitsiyaning asosiy g‘oyasini yoritib beruvchi omillardan biridir. Etyud ishlashda katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan suvbo‘yoq surtmalaridan keng foydalanish mumkin. Rang qatlamlarining tabiiy notekisligi, bo‘yoqning tasvir shakliga mos ravishda oqib yoyilishi, suvbo‘yoq go‘zalligini yanada ko‘proq namoyon qiladi. Quriy boshlagan rang qatlami bo‘ylab «quruq» mo‘yqalam ustida chiziqlar yuritib, shakl ma'nodorligini yanada oshirish mumkin. Etyudda fazoni bir bo‘yoq rangini ikkinchi ranga qo‘yib yuborish yo‘li bilan tasvirlash mumkin. Bunda ranglarning bir-birlari bilan nozik birikuvlari, uzluksiz tekis kirishuvlarni keltirib chiqaradi. To‘q rang bilan yengil kurkam jilolar yordamida etyudning rang yechimi keltirib chiqariladi. Agar etyud ma'nosi muhim mavzuga mo‘ljallangan bo‘lsa, tasvirni «quruq» mo‘yqalam yordamida aniq-lashtiri sh, biror kontrastlashtirish, nimanidir kuchaytirish va nimadandir voz kechish mumkin. Tabiat obrazita'sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda etish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq yoki sovuq, ochroq yoki to‘qroq, uning g‘oyat ko‘rkamligini ilg‘ay olish, shuningdek qiziquvchanlik har bir etyud yechimiga me'zon bo‘ladi. Chunonchi, tabiat har qachon ijodiy izlanishlar, go‘zallikni xis qilib didni oshirish manbai bo‘lib kelgan. O‘rol Tansiqboyev yaratgan manzara asarlari, nafaqat O‘zbekistonda, balki jahon manzara san'ati durdonalari qatoridan o‘rin olgan.

## *“Yozgi etyud” mavzusida kompozitsiya ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari*

Tasviriy san’at darslarida “Yozgi etyud” mavzusida kompozitsiya ishlashning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini o‘rganish tasviriy san’at nazariyasidagi yangi yunashlash deb qarash mumkin. U tasviriy san’at olamida yaratilgan san’at asarlarini «Badiiy his qilish psixologiyasi» bilan uyg‘un holda o‘rganiladi. Tabiat manzarasini chizish mavzusidagi san’at asarlarini juda ko‘plab rassomlar ijodida kuzatish mumkin. Ma’lumki, badiiy asarlar go‘zallik qonuniyatlari asosida yaratiladi. Tashkil etuvchi qismlardan – ritm, simmetriya, proporsiya (shakl) va boshqalar maxsus bo‘limga ajratilib, izohlab chiqilgan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi uchun “Yozgi etyud”da ishlangan kompozitsiya tasviriy san’atning manzara janrida ishlangan bo‘lib, ushbu asar har bir inson ruhiyatini tabiatga yaqinlashtiradi. Aytish lozimki, ushbu asarda olimlar tomonidan har qanday san’at asarini his qilishda zarur bo‘ladigan go‘zallikning doimiy elementlari ishlab chiqilgan. Ular odatda, san’at nazariyasida ifoda, badiiy va kompozitsion vositalar, xususan, kompozitsiya, nur va soya, kontrast, simmetriya, nisbat, plastiklik, ritm, tonallik, dinamika, hajmlilik, arxitektonika, uyg‘unlik deb yuritiladi. Badiiy ijodiyotning ko‘p asrlik tajribasi kompozitsiyaning bir qator qonuniyatlari ishlabchiqishga sharoit yaratib berdi. Ularga amal qilgan holda estetik botartiblikka oson erishilmokda. “Tabiat manzarasini chizish” mavzusida ishlangan kompozitsiyadagi tabiatdagi yaxlitlik, simmetriya va ritm qoidalari o‘ziga xos bo‘lgan qonuniyatlari hisoblanadi. Xuddi shu xususiyatlariboshqa boshqa san’at asarlaridan alohida ajratib turadi. Yaxlitlik asarning uyg‘unligi, tugallanganligi va konstruktiv aniqligini namoyon qiladi.



Manzara janrida yaratilgan har qanday san'at asarlarini his qilish jarayonini kompozitsiya tushunchasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

“Yozgi etyud” mavzusida ishlangan kompozitsiyaning o‘ziga xos psixologik xususiyatlaridan biri – unda tasvirlangan tabiat unsurlarini, borliqni butun psixik jarayonlar orqali his qilish bilan zavq olishdir. Kompozitsiyaning asosiy xususiyatlari– mantikiylik, shakl aniqligi hamda qismlar mutanosibligidadir. Ushbu so‘z lotincha «composito» suzidan olingan bo‘lib mutanosiblik, birlashuv, bog‘liklik degan ma’noni anglatadi.



XIX. Etyud. «Eski shahar». Akvarel.



XX. H. Abdusalomxo‘jayev. «Yoz».

“Tabiat manzarasini chizish” mavzusida ishlangan kompozitsiyada barcha kompozitsion, badiiy va ifodaviy vositalar mavjuddir. Ushbu san'at asariga oid psixologik xususiyatlarni bilmasdan, uning mazmunini, mohiyatini badiiy his qilish xususiyati haqida muhokama yuritish qiyindir. Rangtasvirning asosiy vositalari moy buyoqlar bo‘lib, ular yordamida ushbu manzara janridagi kompozitsion asar yaratildi.

Rang “Yozgi etyud” mavzusidagi kompozitsiyasini badiiy his qilish psixologiyasida bosh vazifani bajaradi. Rangni his qilish jismoniy va ruhiy (psixologik) xususiyatlarga bog‘lik bo‘lgan murakkab jarayondir.

Zamonaviy san’atshunoslik ikki sifatli darajani belgilaydi. Birinchisi – rangni sezish va uni badiiy qabul qilish. Ikkinchisi - rang hissiyoti tushunchasiga ham bog‘liqdir. Rangni sezish – eng sodda psixologik jarayon bo‘lib, uni badiiy his qilish psixologik tartibning bir qator qonunlariga asoslanadi. Rang hissiyoti emotsional va estetik sohalarga tegishli. Rangni qabul qilish ko‘zning holati, tomoshabinning ruhiy holati, yoshi bilan belgilanadi. «Ko‘z – astrologiyaning asosi hisoblanib, u kosmografiyani yaratadi, u insonlar yaratayotgan san’atni o‘z maslahatlari bilan kerakli yo‘lga yunaltiradi» – deb yozgan edi Leonardo da Vinchi o‘zining «Rangtasvir haqidagi manbasida». “Yozgi etyud” mavzusidagi kompozitsiyada foydalanilgan ranglardagi asosiy farq ochlik, rang tusi va to‘yinganligida bo‘lib, rang dog‘i shu orqali xarakterlanadi. Ranglar aralashuvi kompozitsiyaning mohiyatini ochishda alohida ahamiyatga ega. Tabiatda toza rang yo‘q, barcha ranglar aralashadi. Kompozitsiyada kontrast usulidan foydalanildi. Kontrast – bir-biridan keskin farq qiluvchi tasavvur va omillarning qarama – qarshi qo‘yilishidir. Kontrastning mohiyati shundaki, bir-biriga keskin qarama - qarshi bo‘lgan buyumlar (predmet) yoki holatlar birgalikda yangi tuyg‘u va hissiyotlarni uyg‘otadi. Rangtasvir san’atida kontrast universal vazifani bajaradi. Kontrastning ramziyligidan ma’lum bir dunyoqarash, mazmuni ochib berish maqsadida foydalaniladi. Kontrast shakl yasovchi elementdir, u (bezakdorlik) dekorativlilik xususiyatlarini yaratishda ishtirok etadi. U nur – soya o‘yini, chiziqli perspektiva bilan birga fazoviy chuqurlikni yaratishga ko‘mak beradi. Rang uyg‘unligi, kolorit, nur – soya kontrastni o‘z ichiga oladi. Kontrastning ikki turi bo‘lib – tabiiy-ilmiy aspektlar yordamida o‘rganilib, hodisalarni psixofiziologik va estetik nuqtai - nazardan bajariladigan tabiiy-ilmiy, hamda badiiy ifodalilik vositalari tizimida

kontrastning o‘rni aspektlarga bo‘linadi. Kontrastning klassik misoli bo‘lib – qor ustidagi soyalar hisoblanadi.

Rang hissiyoti deganda – rangni murakkab his etish jarayonini boyitish tushuniladi, bunda nafaqat rangning doimiy xususiyatlari xarakteristikasi, balki rang bilan bog‘liq tasavvur, timsol, o‘xshatma (assotsiatsiyalar)larning murakkab tizimi talqin etiladi. Rang uyg‘unligi mutanosibligi, muvozanat, hamohanglik kabi sifatlar bilan belgilanadi. Qonuniyat uyg‘unlikning bosh belgisi hisoblanadi. Ushbu qonuniyatlar tufayli tomoshabin ranglar majmuasini tartibga solingan estetik – ijobiy jamlanma sifatida qabul qiladi. Rang timsollarning ruhiy (emotsional) xarakteristikasini yaratishda qatnashadi. Rangni his qilishda hissiyotlar turli xil bo‘ladi. Umuman bu kayfiyat – xursandchilik, qayg‘u, iztirob, quvnoqlik hissiyotlardan iborat. Rangni badiiy his qilishga hamrohlik qiluvchi yana bir hissiyotlar (emotsiyalar) – vazn, harorat, fakturaga bog‘liq bo‘ladi. Va nihoyat ushbu “Yozgi etyud” mavzusidagi kompozitsiyada rang ramziyligini oladigan bo‘lsak, u orqali nafaqat estetik, balki dunyoviy mazmundagi ifodaviylikka erishish mumkin. San’atshunoslik adabiyotida yashildan to qizilgacha bo‘lgan ranglar – iliq ranglar majmuasiga kiradi. Boshqalari esa, ya’ni moviydan och qizilgacha – sovuq ranglar majmuasiga kiritiladi. Yashil rang-betaraf (neytral) hisoblanadi. G‘arbiy Evropaning rangni his etish psixologiyasida ishlab chiqilgan ranglar ramzini O‘rta Osiyoda XX asrning oxirida paydo bo‘lgan ranglar ramzi bilan taqqoslash qiziqarlidir.

Taniqli nemis shoiri Gyotening so‘zlariga ko‘ra, ko‘z yashil rangdan lazzatlanadi. Sariq rang jozibali bo‘lib, u iliq taassurotlar va xush kayfiyatlilik uyg‘otatadi. Ko‘k rang esa soya – salqinni eslatib, tanada sovuqlikni hosil etadi. Qizil rang jiddiylik, obro‘ bilan bir qatorda, joziba va nazokatlik haqida taassurot beradi. G‘arbiy Evropada yashovchi inson ranglarni mana shunday qabul qiladi.

O‘rta Osiyo aholisi, sufizm falsafasiga asoslanuvchi musulmonlar esa ranglar ramziyligiga o‘zgacha yondashishgan. Rang nazariya semantikasi nuqtai nazaridan qiziqarlidir. Tojik olimi

A.Qurbonmamadov olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, agarda so'fiy ilohiy go'zallikka cho'mish holatida bo'lsa, u qora rangli kiyimda bo'lishi kerak, agarda u ilohiy yuksaklikka cho'mish holatida bo'lsa oq rangli kiyimda bo'lishi lozim. Shuningdek ular ko'k, sariq va boshqa ranglardagi kiyimlarni ham kiyishgan. So'fiylar nazarida rang mistik quvvatga ega bo'lib, u e'tiqod qiluvchilarga ham ruhan, ham jismonan ta'sir o'tkazgan. Oq rangni ular soflik, tozalik, pokizalik, ko'ngilochar ramzi sifatida qabul qilganlar. E'tiqod qiluvchilar oq rangni beg'ubor, dunyo ne'matlaridan voz kechish ramzi deb bilganlar. Qora rang sufizmda inson ongi anglab eta olmaydigan qandaydir yashirin bir sir ramzini anglatgan. Qora rang sarosimalik va qayg'u, insonning Payg'ambar oldida kuchsiz ekanligini isbotlovchi rang deb bilingan. Qora rangda kiyingan insonning qalbi – boshqalar uchun sirlar kitobi sir bo'lgan. Qora rang – zulm, yovuzlik, baxtsizlik, halokat va ayriliq rangidir. Bu ramzlar ko'pincha Sharq nazmida (she'riyatida) qo'llanilgan. Ko'k osmon rangi, ochilmas sir, xavf-xatar va ofat belgisi sifatida ta'riflangan. Ko'k rang etik mazmun ham baxsh etgan. U kamtarlik, soddalik, va abadiylikni anglatgan, hamda mustahkamlik va irodalik ramzi sanalgan. Yashil rang – sokinlik, osoyishtalik va Xudo bilan tilsiz muloqotda bo'lish rangidir. U ko'rish qobiliyatini ravshanlashtirib, etik jihatdan saxiylik, tobe'lik, Xudoga bulgan sadoqatni anglatgan.

Shunday qilib, ushbu bitiruv malakiy ishida “Yozgi etyud” mavzusida ishlangan kompozitsiya uchun foydalanilgan ranglar va ularning psixologiyasi bilan tanishdik.

Bundan tashqari mavzu asosida ishlangan kompozitsiyada rassom-pedagoglarning psixik protsesslari muhim ahamiyatga ega. Ularda ana shu psixik protsesslar yuksak darajada rivojlanib, taraqqiy etgan bo'lsa, rassom yaratgan har qanday asar o'zining ruhiy olamini ocha oladi. Quyida “Yozgi etyud” mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida psixik jarayonlar bilan ijodiy jarayonlar uzviy bog'liqliklari haqida ma'lumot berishga harakat qilindi.



Tasviriy san'at asarlarining har biri o'zining ijtimoiy-psixologik xususiyatiga ega. Ana shu xususiyat ularning pedagogik tarbiyalovchi imkoniyatlari katta ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy psixologiyada an'ana ajdodlardan avlodlarga o'tib keluvchi, o'z odatlari, qoidalari, qadriyatlari va tasavvurlariga ega, tarixan shakllangan faoliyat va xulq-atvor shakl sifatida talqin qilinadi. An'analar milliy xususiyatga ega, ular millat hayotidagi o'zgarishlar bilan birgalikda o'zgarib, yangilana boradi. An'analar odamlarning turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyatini tartibga solib turuvchi muhim omildir. Tasviriy san'atda manzara janrida kompozitsiya ishlash murakkab jarayon bo'lib, butun ijodiy kuchni mujassamlashni, ishda aniq muntazamlilikni talab etadi, shuningdek, doimiy kuzatishni va o'rab turgan hayotimizni o'rganishni hamda asarda ijtimoiy hayot tarzini targ'ib qilishni taqozo etadi.

Buyuk san'at sohiblarining betakror asrlaridagi ilg'or g'oyalarda badiiy ijod olamining yashirin qirralari yoshlarimiz ongida uzoq o'tmishdan hikoya qiluvchi ertaklar kabi qalblarda go'zal tuyg'ular uyg'otadi. Tariximizda o'chmas iz qoldirgan sahifalar yoshlarimiz ruhiyatini yanada boyitadi. Ijodkor har bir asariga insonlar qalbida joy olishi uchun unga yurak qo'rini to'kadi. Vujudida oqayotgan jo'shqinlik tanaga jon bag'ishlaydi. Rassom san'at asarini yaratishda o'zida katta irodani ko'rishi lozim. Bu ishining muvofaqiyatli chiqishiga turtki bo'ladi.

Tabiat mavzusida ishlanadigan kompozitsiyada ijodkorning irodaviyligi – ijod kuchining samarasini belgilaydi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri ekanligin hisobga oladi. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsa-da, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq. Irodasizlik ma'naviyatning kuchsizlanishiga olib kelishi, so'ngra jismoniy kuch va insonda dangasalik va hatto ongsizlikka olib kelishi mumkin. Bu holda insonning biror ahamiyatli narsa yaratishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Iroda psixologik nuqtai-nazaridan o'zida shaxsning ongli ravishda o'z xarakterlarini boshqaradigan psixik

jarayon bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi ko'nikmasini egallashdagi urinishlarida namoyon bo'ladi. Iroda maqsadga etish uchun aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ongli ravishda boshqara olish yoki aksincha qandaydir voqeani amalga oshirmoqlikdir. U faqat insonga xosdir. Iroda oddiy va murakkab harakatlar orqali amalga oshadi. Murakkab irodaviy harakatlar avvalo, anglash va masalani qo'yish, masalani qo'yish va rejalashtirish, rejalashtirish va maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Iroda ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi: harakatchanlik, mustaqillik, keskirlik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik va o'z-o'zini boshqara olish. Irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar – hayol, sezgi, xotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi. Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana rassomning shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi.

Asar yaratayotgan ijodkorda avvalombor ilhomlanish vujudga kelishi kerak. Ilhomlanish – insonning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruxiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilhomlanish – go'yo ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan qattiq bosim berganday tuyulsa-da, lekin amaliy jihatdan rassom uchun bu vaziyat juda yengil kechgan, unda hamma narsaga oson erishilgan, ijodiy topshiriqlar juda tez echilgan bo'ladi. Bu yengillik shu narsa bilan bog'liq bo'ladiki, bunda rassom katta hayotiy taassurotlar zahirasiga ega bo'ladi va katta qiziqish va quvonch bilan ishlagan edi. Bunda uning ijodiy hayoli va obrazli tafakkuri faol ishlaydi. Bularning barchasi sonning sifat darajasiga o'tishiga – natijada, qattiq ilhom bilan ishlangan mehnat badiiy asarni dunyoga keltiradi.

Xayol – ijodda asosiy va o'ziga xos natija ko'rsatuvchi ijodiy kuchdir. Badiiy ijodda uning ixtiyoriy, ixtiyorsiz, yaratuvchi ijodiy xayol kabi turlarining barchasi ishtirok etadi. Bular ichida albatta ijodiy faoliyatda ijodiy xayol katta o'rin tutadi.

Intuitsiya – sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo‘lib, inson ruhiy faoliyatida – ya’ni ijodiy mehnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga so‘zsiz intuitsiya xotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo‘ladi. Intuitsiya ob‘ektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo‘lsada, uni rivojlantirish yo‘llari ham bordir. Ulardan asosiysi - organizmning biologik sifatlarini tarbiyalashdir (rassomning ko‘zi, qo‘shiqchining ovozi, musiqachining qulog‘i va barmoqlari, raqqosaning qomati) kuzatuvchilikni o‘stirish, xotiraning hajmi va ishchanligini ko‘tarish, tafakkurni rivojlantirish (jumladan, obrazlilikni), xayol, hissiyotni tushunish, birmaromlilik, uzluksiz mehnat va yangi yechimlarni har tomonlama izlash kabilardir.

Tafakkur – ijod kuchlaridan biri bo‘lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda, idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o‘ynaydi. Xotira vositasida, ya’ni, badiiy asar yaratish maqsadida, tafakkur ishtirokida borliqni chuqur va har tomonlama bilishning oliy jarayoni hisoblanadi, predmet va voqealarning belgilari va o‘zaro biriga qonuniy bog‘langanligi bilan, umumiy va ichki xususiyatlarini ochishga yo‘naltirilgan holda namoyon bo‘ladi.

Badiiy asar inson faoliyatining boshqa sohalaridagi kabi, tafakkurning mahsuli hisoblanadi. San’at asari faqat tasviriy materialni o‘z ichiga olibgina qolmay, balki g‘oyaviy-estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi. Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, u ijodiy xayol bilan birga xarakatlanadi va san’at spetsifikatsiyasi xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda ishlaydi.

Emotsional to‘lqinlanish – ijodning kuchlardan biri sifatida rassom uchun juda zarur hisobladi. U shuning uchun zarurki, ular orqali hayotdan ancha yorqin taasurol olishnigina emas, balki rassom o‘zida bu to‘lqinlanishni o‘tkazadi. Shunday qilib, hissiyot reproduktiv ijod kuchi sifatida olamni aks ettiruvchi, ayni bir vaqtda hayotda yangilik yaratishga yordam beruvchi sifatida san’atga individual munosabat paydo qiladi va borliqning obrazini shoirona tasvirlashga harakat qiladi.

Xotira – xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o‘z navbatida o‘zida eng zaruriy psixik jarayonni – odamning o‘tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so‘ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o‘tmish tajriba mazmuni bilan bog‘lamasdan xotiraning aralashuvisiz borliqni, jumladan, badiiylikni ham idrok etib bo‘lmaydi. Xotira badiiylikni aks ettirishda xizmat qiladi. Inson hayotida va har qanday faoliyatida xotirani chetlab o‘tolmay qoladi, xususan u o‘sha taassurotlar bilangina yashab yuradi. U o‘tgan, ko‘rganlarini, anglaganlarini va taasurot materiallarini tahliliga ko‘ra, tafakkurning natijalaridan foydalanishi zarur bo‘ladi. O‘tmish tajriba faqat xotira evazigagina saqlanib qolishi mumkin.

Rassomning xotirasi yetarli taassurotlar zahirasisiga ega bo‘lgandagina u naturasiz ishlay oladi. Tasviriy ijod xotiraviy obraz-larsiz bemaqsad va befoydadir.


Naturadan ishlashda olingan tasavvurlari yig‘indisi va ko‘rish taassurotlari (to‘liq obrazli) asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazlar yaratishga imkon beradi. Rassom chizishni, yozishni, yasashni va hokazolarni tasavvur va xotira asosida bajarishi, u naturadan qanday ishlasa, «o‘zidan» ham shunday ishlay olishi shart. Xotira boy bo‘lmog‘i uchun rassom uni doimo rivojlantirmog‘i, mashq etib bormog‘i zarurdir. Hech bir rassom o‘zi yaratayotgan asarini ya’ni predmetini, psixologiyasini hamda u to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bilmay turib uni tasvirlay olmaydi.

Har qanday ijodkor o‘tmishdagi rangtasvir san’ati ustalarini merosini va tajribalarini o‘rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta’sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o‘rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o‘xshatish, kontrast qonun vositalarini mazmuni va g‘oyaga bo‘ysinish kompozitsiyani asosiy qonunlari deb hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E. Kibrikning kitobida to‘la va chuqur analiz qilib berilgan kompozitsiyada birinchi yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san’at asari bo‘linmas bir butun bo‘lib ko‘rinadi.

Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi. Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I. Levitanning «Vladimrka», «Abadiy sokunlik uzra», I. Shishkinning , «O'rmon yiroqliklari», V. Meshkovning «Ural haqida o'ylar» asarlarini keltirish mumkin. Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlari insonda tabiatga va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi.

Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi. V. Vasnetsovning «Alyonushka» asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy go'zalligini, zamonasiga xos yangilik o'zgarishlarni K. Yuon, G. Nisskiy kabi rassomlar ham o'z asarlarida tasvirlab namoish etdilar. 50-70 yillarda O'zbekistonda manzara janrida ijod etgan rassomlar U. Tansiqboev «Issiq ko'l», «Ona o'lka», "Qayroqqum suv ombori", N. Qoraxon «Nanay yo'li», "Sijjakda bahor", R. Temurov Samarqand arxitektura manzaralari turkimini yaratdilar.

70-80 yillarda G'.Abdurahmonov, F.Toxirov.R.Choriev, K.Bogaduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A. Nuritdinov, O.Qozoqov, Z. Islomshikov, A. Mo'minov, A. Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekiston go'zal tabiatini madx etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.



***O‘.Tansiqboyev“Oltinkuz” O‘.Tansiqboyev ”Qayroqqum suv ombori”***

Manzaraning bir necha turlari mavjud:Shahar (Arxitektura), qishloq (tog‘) manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko‘rinishida) manzaralari shular jumlasidandir.



***O.Qozoqov “Tog‘ manzarasi”.***

Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g‘oya yotadi. Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog‘liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh bog‘lar hamda er osti o‘tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo‘la oladi.Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog‘ manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o‘simliklar,

vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko‘prik, metro qo‘rilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog‘langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Bahor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go‘zalligini, uning uyg‘onish holatini ettiruvchi, insonga olam – olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko‘rish nuqtasi, ko‘rish chizig‘i, fazoviy masofa, format, perespektiva, ritm, kolorit, yorug‘, refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir. Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir soxalarida mukammal bilimga ega bo‘lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizg‘i rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo‘lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo‘lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar,, peshin, oqshom holatini harakterli joylarini sinchiklab kuzatish kerak. Formatni aniqlab, ufq chizig‘i, ko‘rish nuqtasini belgilab olish kerak. So‘ngra havo va erni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko‘mirda bajarish tavsiya etiladi. Mukammal bajarilgan xomaki eskiz variantni rang koloritini aniqlash lozim.

Sifatli bajarilgan eskiz asosida qishloq manzarasi kompozitsiyani yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni bajarish shartlari qog‘oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo‘yoq orqali amalga oshiriladi. Bo‘lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo‘ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma’naviy oziqa beradi, uni ruhlantirvdi, hayotga shodlik va quvonch bag‘ishlaydi.

## Natyurmort janri



**Natyurmort janri** –natyurmort (lug‘aviy ma‘nosi- *jonsiz tabiat*) haqida odatda, sabzavot - mevalar, gullar, uy ro‘zgor buyumlarni tasvirni ko‘zda tutadilar.Lekin natyurmortda jonsiz tabiat tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli hayot nafasini sezamiz. Natyurmort kompozitsiyasini ma‘noli va ta‘sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir - biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog‘lanishda qo‘yilishi kerak: Qo‘yilgan natyurmort kishida , qiziqish va rasm chizishga havas xissini uyg‘otadigan bo‘lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo‘lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta‘sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, xajmi, materiali, sirti (fakturasi) rang va och – to‘qligi (tus) bilan bir - biridan farq qilishi kerak.

Qadimgi Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda ("qush va gullar", VII asrdan) kompozitsiya bo‘lagi sifatida ma‘lum bo‘lgan. Yevropada XVI asr oxiri — XVII asr boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo‘ldi, keng tarqala boshladi, eng taraqqiy etgan davri XVII asrga to‘g‘ri keladi, XVIII asrdan "**NATYURMORT**" atamasi qo‘llanila boshladi.Italyan rassomi M. Kapaeajo va uning izdoshlari (karavajizm) natyurmortning keng tarqalishida muhim rol o‘ynadi: gul va mevalar, dengiz in‘omi — baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (V.K.Xeda, P.Klas va b.), Flandriya (F.Sneyders, Ya. Feyt va b.),



Ispaniya (F.Surbaran va b.), Fransiya (J.B.Sharden va b.) va b.da yuksak taraqqiyotga erishdi. P.Sezann, A.Matiss, J.Brak va boshqalarnatyurmortga ko‘proq e‘tiborni qaratganlar. XXasrda natyurmort realistik an‘analarini Meksikada D. Rivera, D. Sikeyros, Italiyada R. Guttuzolar davom ettirdi.Rossiyada natyurmort XVIII asrda paydo bo‘ldi. Kuzni aldaydigan "xuddi o‘ziga o‘xshash" (aldamchi) rasmlar ishlashdan (G.Teplov, P.G.Bogomolov va b.) shakllanib bordi. XIX asr I yarmida haqqoniylikka, borliqni o‘zidan go‘zallik topishga harakat qilindi (M.A.Vrubel, K.Korovin, I.E.Grabar va b.), shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuk,larga erishildi (P. Kuznetsov, P.P.Konchalovskiy, A.Kuprin va b.)

O‘zbekiston tasviriy san‘atida natyurmort unsurlari qad.davr san‘atida (Masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida — vazadagi mevalar), miniatyura san‘atida (Masalan, Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar — siyohdon, qamchi) uchraydi. Natyurmortning haqiqiyshakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30—50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi: L.Nasriddinov ("Nonli natyurmort"), Sh. Hasanova ("Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort") va b.; M. Kurzin, V. Rojdestvenskiy, V. Ufimsev, natyurmort Kashina, 3. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, S. Abdullayev, V. Fadeyev, Yu. Yelizarov va b. natyurmort yaratdilar. 60—80yillarda L. Salimjonova, Yu.Taldikin, R. Choriyev, V. Burmakin, Ye.Melnikovlar ijodida NATYURMORT keng o‘rin tutadi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikrom-jonov, M. Nuriddinov va b. natyurmortda samarali ijod qilib, natyurmortning taraqqiyotini ta‘minladilar.

## **Animalistik janr**



**Animalistik janr-** o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha "*anima*", "*hayvonot olami*" degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarining devorlariga kiyik, qutos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Lyeonardo da Vinchi va A.Dyuryerlar ishladilar. Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli do'stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlarida tasviriy ifodalar beqiyos ahamiyat kasb etgan. Negaki, eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrini, munosabatlarini, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvon-larni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Bundan bilish

mumkinki, animalistik janrga oid bo'lgan tasvirlar o'sha davrlardan boshlab rivojlangan. Hozirgi O'zbekiston hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o'nlab tasvirlar qoldiqlari topilgan. Shulardan biri Zaravutsoy g'orida ishlangan ov manzarasidir. Mazkur g'ordagi rasmlarda qadimgi rassomlarning o'ziga xos faoliyatini ko'rish mumkin. Qo'hitang tog'ining eng yuqori qismining birida joylashgan bu g'orni "Oltin olov qoyasi" yoki "Oltin olov darasi" deb ham, atashgan. Chunki g'or - oltin, o't - olov ma'nosida ishlatilgan. Shu bois bu muqaddas yodgorlik "Zaravutsoy" nomi bilan atalib kelin-moqda. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi. Ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik asosiy mashg'ulot turi bo'lganligi sababli ibtidoiy tasvirlarda ov manzarasi keng o'rinni egal-lagan. Tasviriy san'atning ibtidoiy davriga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomi bilan atalib kelinayotgan toshdagi tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda ham fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan.

Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi "Sarmishsoy" tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o'z aksini topgan. Ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini umuman qadimgi san'atning tiklanishida arxeologlarimiz- ning samarali mehnatlari diqqatga sazovor. Chunonchi, Sarmishsoy rasmlari haqida A. Muhammadjonov "Qadimgi Buxoro" kitobida shunday qiziqarli fikrlarni yozadi: "Bu ibtidoiy tasviriy san'at asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko'targan qoyatoshlarning silliq yuzasiga solingan. Ularning asosiy qismi uchli asboblari vositasida surunkasiga zarb bilan yoki o'tkir qirrali keskichlar vositasida chizib yoki tarashlangan. Ming yillar osha ularning eng qadimiy nusxalari quyosh va shamol ta'sirida unqib qorayib ketgan bo'lsa-da, choshgoh va kech peshinlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Sarmishsoy qoyalarida yovvoyi buqalar, shoxlari atrofga butalab ketgan bug'u va quyonlar, yelib borayotgan tog' takasi, ohu, to'ng'iz, bo'ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va xonaki hayvonlar, shuningdek,

ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan”. Qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik, shakl va chiziqlar orqasida bolayotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatlari ko‘zga tashlanadi. Qoyatosh, daralar va g‘orlardagi rasmlar mazmunan boy bo‘lishi bilan birga xilma-xildir. Ularda turli manzaralar o‘z aksini topgan. Umuman bu tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg‘ulari yuzaga chiqqanligini ko‘ramiz. Bu rasmlarda har bir belgi, qoralama yoki shakl o‘ziga xos fikrni ifodalab berishi bilan qiziqarli. Yuqoridagi dalillardan ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimizning hayo-tida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o‘rin tutgan.

Animal janri - majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san'at asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning harakatlari, qivofalari va shu obrazlar orqali hayot voqealari aks hayvonlar obrazini rasmlarda yaratish avvalo qadimdan rivojlanib kelgan. Ovdagi yutug‘ini ham chizgan rasmi bilan bog‘liq deb bilganlar. Bu ularning psixologik tayyorgarligiga qarab borishi deyish mumkin. Shuning uchun ham ularda qo‘rqmaslik, tabiat qoidasiga buysunish va turli tabiiy xolatlar bilan kurashga chorlagan.

Tasviriy san'at rivojlanishi davomida, uzoq yillar barcha janrlarda ijod qilish bir-biri bilan birga bordi. Shulardan ajralib chiqqan animalistik janr ham keyinchalik rivojlandi. Hayvonlar obrazini yaratish uchun uning xarakterini bilish lozim. Chunki u hayvon yoki qushlar faqat bizga go'sht, tuxum, jun va boshqanarsalargagina kerak emas. Ular tabiat muvozanatini saqlash, insonlarga har qanday damlarida hamroh bo‘lish uchun yaratilgan. Juda ko‘plab rassomlar jonvorlar rasmini chizgan ya'ni, O'rta Osiyo miniatyurachilarining asarlarida, Rubens, V. A. Vatagin, Ye, Rachev asarlarida hayvonlar alohida tasvirlanadi. Ko‘plab suratlarda esa asarlarning bir qismi shaklida unga to‘ldiruvchi bo‘lib hisoblanadi. Tabiatdagi narsalarni yaxshi ko‘rish, ularni himoya qilish, o‘rgatish, turli suratlar orqali amalga oshadi. Ko‘pinsha uy hayvonlari bizga doimiy hamroxi, ot, quy, sigir, echki, it, mushuk va boshqalar. Boshqa yovvoyi hayvonlar

tabiatimizning koʻrki, sanitaridir. Qushlar ham bizning eng yaqin doʻstlarimiz boʻlib hisoblanadi. Ularning rasmini chizishni bilish odamga zavq bagʻishlaydi. Shunintdek, oʻquvchilar animal janrlarda rasm chizar ekan fazoviy tasavvurlarini oshirib boradilar. Hayvonlar tasviri asosida asarlar yaratganda ularning hayot tarzini oʻrganishni ham talab qiladi. Ularning tashqi koʻrinishi, harakteri, oʻziga xosligi tuzilishi har turli yashash tarzi toʻgʻrisida maʼlumotlar oladi.

Animalistik janrda hayvon va qushlarning tashqi koʻrinishini, xarakterli jihatlarini tasvirlanishini oʻrganish imkoniyatiga ega boʻlish mumkin. Animalistik janr haqida umumiy maʼlumotlar va uning tarixiy taraqqiyoti. Milloddan avvalgi ming yillikda Karpatdan Shimoliy Xitoygacha boʻlgan yerlarda yashagan «skif» qabilasining sanʼatida ham «hayvonot uslubi» deb nom, olgan qushlar va hayvonlarning loy, metall va suyakdan yasalgan jozibali shakllari ham yuksak eʼtiborga molik boʻlgan. Qadimgi Misrda esa jonivorlarni tasvirlash takrorlanmas monumentallik va yuksaklikka ega edi. Sababi misrliklar koʻplab jonzorlarni oʻzlarining xudosi deb xisoblashar edi.

Spinkslar – inson qiyofasidagi hayvon va qushlarning boshi qoʻndirilgan ilohiy suratlar inson va hayvonlarning tabiatdagi uzviy bogʻliqligini namoyon etib turadi. Huddu shunday birdamlik aloqalari qadimgi Peru va Meksika xalqlarning dekorativ bezak ishlangan buyumlarida ham uchratishimiz mumkin. Hayvonot olaminig tasvirlanishi Qadimgi Yaponiya va Qadimgi Xitoy tasviriy sanʼatidagi dekorativ va monumental kompozitsiyalarining keng tarqalgan motivlaridan biriga aylangan edi. Ikki daryo oralgʻi mamlakatlarining sanʼati hoʻkiz, sher, otla rning butun gavdasi bilan yoki kalla qismining tasvirini idishlarda, kulol va musiqa asboblari bezak oʻrnida ishlatilganligining guvohi boʻlishimiz mumkin. Qadimgi Yunioniston va Qadimgi Rim musavvirlari ijodida esa sanʼatning bosh obyektini inson qiyofasi olingan antik davr madaniyatida hayvonot olamini tasvirlash alohida ahamiyatga ega emas edi. Oʻrta Osiyo tasviriy sanʼatida esa biz asosan haykaltaroshlik miniatyirani uchratishimiz mumkin. Surxondaryo viloyati Denov tuminidagi

Zarautsoy harobalarfidan topilgan. Buxoro viloyatida qadimgi Varaxsha saroyida topilgan «Yararalangan quchqor» tasviri mukammal ravishda proporsionallikka e'tibor berilib ishlangan gorelef shaklidagi haykaltaroshik asari bu yerda ovchilikning naqadar avj olganidan dalolat berib turibdi.

Keyinchalik XIV-XV asrlarga kelib hayvonlarning va qushlarning tasvirini biz asosan miniatyura asarlarida uchratishimiz mumkin. Yevropa uygonish davri musavvirlari ijodida real borliqni o'zining keng qamrovi bilan tasvirlanishi, ularning hayvonlar tasviri tushirilgan natural ko'rinishlari haykaltaroshlikda freska va dastgoh janri asarlarida o'z aksini topadi. Bunday asarlar yaratilishiga birinchilardan bo'lib XV asrda Italyan musavviri A. Pezachello murojaat qildi. XVI asrga kelib esa hayvonlarning ajoyib kuch va aniqlikka ega bo'lgan suratlarini Leonardo da Vinchi va A. Dyurer yaratishdi. Gollandiyada esa XVIII asrda xayvonlarni tasvirlash uchun aloxida janr mavjud edi. Bu janrda birinchilardan bo'lib ijod qilingan musavvirlarlan A. Keyp va P Potter o'z asartarida uy hayvonlarinng ferma va yaylov fonida mohirona tasvirlab berishgan. Bu davrda har bir animal musavvir o'zi sevgan mavzu doirasi va obrazlariga murojaat qilar edi. XIX asrda moxir haykaltarosh A. P. Bari o'z asarida uy hayvonlarini yirtqich hayvonlar bilan – o'ziga xos jozibadorlik bilan tasvirlay olgan.

O'zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII-V asrlarda Afrasiyob freska va haykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvoxi bo'lamiz. Shark miniatyura rangtasviri asarlarvda ham hayvonlar tasviri tez-tez uchrab turadi. Miniatyurachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, sher, qoplon, qushlar ko'p tasvirlanadi. Kamoliddin Bexzodning «Tuyalar jangi» asari Rizo Abbosiyning «Chupon» miniatyurasi ham fikrimizning dalilidir. XV—XVI asr Yevropada Uygonish davri ranggasvirida A.Pizanello, Leonardo da Vinchi, A.Dyurerlar hayvonlar tasvirini aniq realistik tarzda ifodalashga harakat qilganlar. XVII asrga kelib Gollandiyada

hayvonlarni tasvirlash aloxida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va haykaltaroshlardan P.Klodg, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnesovlar ham ijod kilishib, betakror san'at asarlarini yaratdilar.

***Animalistik janr tasviriy san'atda muhim ekanligi.***

Odamlar tomonidan biror- bir ish, narsa, buyum va hokazolar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning san'at korlik darajasini bildiradi. Shu boisdan ham rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni san'at asari deymiz. San'at qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his - tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi vosi ta sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ijodkor o'z- o'zicha izlanadi, o'z - o'zicha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san'at o'ziga xos turlariga ega. Adabivot, musiqa, teatr.kino, sirk, me'morchilik, tasviriy va amaliy bezak kabi boshqa san'at turlar i ham mavjuddir.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, o'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. "Kiyiklarni ovlash" (Ispaniya) suratlarida obrazlar shar tli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo'lgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon talvasada qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. o'rta Osiyo (Surxondaryo, Farg'ona), Ozarbayjondan topilgan suratlarda ham shu xolni ko'ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Farg'ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettirilgan. Zaravutsoydagi niqob kiyib, o'ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat o'tmish hayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at o'z o'rnida haykallaroshlik, rangtasvir va grafika kabi turlarga bo'linadi. Tasviriy san'atda voqelik, borliq shakllar, chiziqlar, rang lar orqali tasvirlanadi. Tasviriy san'at monumental va dastgoh ko'rinishlariga ham eg a. Monumental deyilganda hajm jihatidan katta, me'morchilik, park, bog' san'atiga,

shuningdek, biror -bir badiiy muhitga mo'ljallangan tasviriy san'at asarlari tushuniladi. Dastgoh asari asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratiladi.

### **Batal janri**



**Batal janri-** (frans. bataille -jang) - tasviriy san'atning urush va harbiy hayot mavzularini aks ettirishga bag'ishlangan janri. Jang ko'rinishlari, harbiy yurishlar, qurolli kuchlarning hayotini tasvirlash batal janrida asosiy o'rinda turadi. Aniq jang lavhasini ifodalash, uning mazmunini ochib berilishi bu janrni tarixiy janrga yaqinlashtiradi. Tasviriy san'atda jang lavhalari tasviri juda qadimdan mavjud. Podsho, fir'avn, shoxlarning zafarli yurishlarining tasvirlari Qad. Sharq san'atida, miniatyuralarda, Xitoy va Kampuchiya devoriy rasm va bo'rtma tasvirlari va boshqalarda ko'p uchraydi. Yevropa tasviriy san'atida batal janri Italiya rassomlari (P. Uchchello, Pyero della Franchesko va boshqalar) ijodida o'z ifodasini topdi. XV-XVI asrlardan janr sifatida shakllandi. Rassomlar jang ko'rinishlarini tasvirlab, urushning kishilarga qanchalar ofatlar va baxtsizliklar keltirishini yorqin lavxalarda ko'rsatdilar. Fransuz inqilobi (1789 - 94) va Napoleon yurishlari ham ko'pgina rassomlar ijodida o'z ifodasini topdi (A. Gro, T. Jeriko va boshqalar), ispan rassomi F. Goyya, fransuz rassomi E. Delakrua bu janrda salmoqli asarlar yaratdi. Rus san'atida Batal janri XVIII asrdan rivojlanish bosqichiga o'tdi. Rus rassomlaridan V. Vereshchagin rus qo'shinlarining Turkistonni



mustamlakaga aylantirish yoʻlidagi urush harakatlarida qatnashib, urush ofatlarini gavdalantirgan "Turkiston" turkumini yaratgan.

XX asrga kelib jahon urushlari davrida yaratilgan, urush dahshatlari, xalq boshiga tushgan kulfatlar, ozodlik uchun kurash gʻoyalarini aks ettirgan asarlarda batal janri, tarixiy va maishiy janrlar oʻzaro uygʻunlashib ketdi. Ijtimoiyva milliy ozodlik harakatlari batal janri da burilish yasadi, uning imkoniyat doirasini kengaytirdi, badiiy mazmunini boyitdi.

Oʻzbek tasviriy sanʼatida bu janrning sarchashmalari qadimdan - arxeologik topilmalar (sanʼat namunalari) va miniatyura sanʼatida koʻrinadi. Qoʻlyozma kitoblar bezagining ajralmas qismiga aylangan moʻʼjaz rasmlarda bazmlar, qabul marosimlari va boshqa lavhalar bilan bir qatorda jang lavhalarini tasvirlash qatʼiy anʼanaga aylangan. Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqa musavvirlar jang lavhalarini oʻziga xos tarzda tasvirlagan. Shuningdek yozma manbalarda taʼkidlanishicha, Amir Temur saroyi devorlariga sohibqironning qahramonlik yurishlarini aks ettirgan jang lavhalari ishlangan. XX asr rassomlari ijodida milliy ozodlik uchun kurash, Ikkinchi jahon urushidagi xalqning jasorati, vatanparvarligi yorqin ifodasini topdi. M.Nabiyev, Oʻ.Tansiqboyev, P.Faxriddinov, A.Alimuhamedov va boshqa oʻzbek rassomlari ijodida jang manzaralarini aks ettirgan asarlar, shuningdek mahobatli sanʼatda ham bu janrga mansub lavhalar bor (jumladan, Ch. Axmarovning Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik instituti binosidagi devoriy rasmlari, tempera, 1969).


### **Nazorat savollar:**

1. Tasviriy sanʼat tarixi nimani oʻrgatadi?
2. Tasviriy sanʼat turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Tasviriy sanʼat janrlarini gapirib bering?

## **Rang tuslarining nomlari va ranglar gammasi xarakteristikasi: iliq va sovuq ranglar.**

Rangtasvir mashg'ulotlarida ranglar bilan ishlashda talabalarni ko'pchilik hollarda qiynab qo'yadigan narsa ranglarning o'zbekcha nomlarini yaxshi bilmaslikdir.

Talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini olib borish uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi rangtasvir asoslarini puxta egallash va rangshunoslik nazariyasini mukammal bilishi shart. Shuning bilan birga realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va amaliy mashq qilish natijasida savodli rangda ifoda yo'llarini o'rganish mumkin. Bu hol, ayniqsa, natyurmort ishlashda, uning ranglari to'g'risida so'z yuritganda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ma'lumki bo'yoqlarning 150 dan ortiq ruscha tuslari mavjud.




Ma'lumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushunamiz. Bu holatni quyidagi jonli misol bilan izohlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlar ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha alohida-alohida, bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz uzuq-yuluq ovozlardan

iborat bo'lib qoladi.

Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi. Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ular ning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi,

ovozlar yo'g'on ingichkaligiga ham bog'liq. Rang-tasvirlarini shlash jarayonida



ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, ya'ni har bir rang va tus ning o'z yorqinligi va to'q-ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir ob'yektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini nursiz

qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir ob'yektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi.

Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasuvurning qay darajadiligiga bog'liq muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo'lsa shuning o'zi kifoya, o'zbek rassomlari ichida ham rangga juda e'tiborli munosabatta bo'ladigan, uning go'zal uyg'unligini ifodalab bera oladiganlari ko'p. Bunday usta, mahorat egalari mo'yqalam sohiblaridan M.Nabiyev, R.Axmedov, R.Choriyev, B.Burmakin, B.Boboyev, J.Umarbekov, A.Mirzayev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, O.Qozoqov va boshqalarning

nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko‘plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Ma'lumki, tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muhit holati muhim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan ob'yektga yorug‘lik manbai atrofidagi boshqa buyumlarni ta'siri kuzatiladi. Ular o‘z rangi, tusi bilan o‘zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo‘lishi mumkin. Rassom ana shunday o‘zgarishlarni chuqur anglab, tahlil qilib, so‘ng ifoda etishi kerak. Aks holda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi, o‘rganayotganlar uchun bunday holatlarni hisobga olib tasvirlashda natyurmortlar juda qo‘l keladi. Chunki unda buyumlardagi soya, teri, shu'lalar, rang tuslarining o‘yini ifodaviyligi yaqqol ko‘rinib turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko‘rsatishda xizmat kiladi. Natyurmortni qanday xonada qo‘yilganligini ham uning yorug‘ yoki qorong‘iligi nur derazadan qay holatda va burchak ostida tushayotgani xam muhim ahamiyat kasb etadi. Shu'la («blik») va rangli shu'la («refleks») natyurmortdagi deyarli barcha predmetlarda aks etib turadi. Ayniqsa, yaltiroq sirtli narsalar sathida bu yaxshi sezilib turadi. Chunki ular yorug‘likni yutmaydi, balki yog‘dulanib qaytaradi. Nurni o‘zida sindirib yuboradigan sirtli narsalarda aks shu'lalarni ba'zan sezib olish qiyinroq bo‘ladi. Ammo ularni talaba ilg‘ab olishini va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun xar bir o‘rganuvchi yosh rassom o‘z bilimini ham nazariy, ham amaliy jixatlarini kitob qo‘llanmalaridan o‘qib rangtasvir namunalarini muzey va ko‘rgazma zallarida ko‘rish mumkin.

### **Nazorat savollar:**

1. Rang gammasi degan ibora nimalarni bildiradi?
2. Rangtasvirning yaxlitligi qanday vositalar yordamida ta'minlaydi?
3. «Kolorit» so‘zi nimani ifoda etadi?


## **Rangtasvir asarlarini yaratishda, qalamtasvirning ahamiyati**

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar xaqidagi ta'limot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, panolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishiga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan bo'lish kerak.

Ranglarni tabiatda qanday xosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

Atoqli va mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. Issak Nton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likning ko'p rangli ekanligini isbotlagan, ekranda spektor ranglarni hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug'ligini derazadagi qora pardaning ingichka tirqishidan o'tkazgan va yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik dastasi ko'rilgan.



Ektranda ko'ringan ranglar spektr ranglar bo'lib, ular quyidagicha joylashgan edi: qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsha rang maxsus asbob - spektroskop yordamida ko'plab aniq va ravshan spektrlarni hosil qilishi mumkin. Oq yorug'lik aslida murak-kab bo'lib, rangdorlik jihatidan shunchalik turli- tumanki, bir rangdan ikkinchisiga o'tishda yana bir qator rang tuslari seziladi. Spektr ranglarni yomg'ir yog'ib o'tgandan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalakda, favvoralaridan otilayotgan suv zarralarida kuzatish mumkin. Spektr ranglarni qayta bir joyga to'plansa, oq yorug'lik hosil bo'ladi. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunos I.V.Gyotenni ko'proq ranglarni kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote «ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratib, iliq (sarg'ish-qizil) ranglar kishida kayfu-chog'lik tuyg'usini, sovuq (havorang-yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgals rangshunoslik nazariyasida muxim yangilik yaratgan. Ko'p yillik tajribalari asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati-rang toni (nomi), rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatgan.

Rang muammolarini o'rganishga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo'lgan Tokio rang institutida inson qalbiga ta'sir etadigan tabiat Hodisasi-rang atroflicha o'rganiladi.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularni birinchi qizil, ikkinchisini ko'k, uchinchisini binafsha va hokazo deb atalishiga asos bo'lgan belgisi rang toni deyiladi. Biroq xromatik rangga ozroq kulrang qo'shsak, uning sho'xchangligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligi, ya'ni uning tarkibidan sof bo'yoqning kamayganligidan darak beradi.

Demak, rangning to'yinganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini, tozaligini tushunish kerak.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, xromatik ranglar bir-biridan uchta asosiy xossasi-rang toni (rangning o'zi), rangni och-to'qligi va to'yinganligi bilan farq qilar ekan. Spekrtni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o'xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi. Bu hosil bo'lgan rang-ni qizil rang bilan binafsha rangning o'rtasida joylashtirib spektr tutash-tirilsa, xalqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasidan qizil, qizg'ish zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, yashiltab zangori havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tusalari ko'rinadi.

Ranglar doirasida rang tusalari juda ko'p bo'lishi mumkin. Lekin ko'zlarimiz ularni 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira bo'ylab joylashish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havo rang, feruza, zangori ko'k binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab-qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, xavo rang, zangori, yashil ko'klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo'lib, xar qanday iliq ham o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin.

Kimyo fani bo'yoqlarning topilishiga, moddalarni kimyoviy usulda qo'shib, bo'yoqlarning reseptlarini aniqlashga yordam beradi. Buyoqlar asosan ikki xil yo'l bilan tayyorlanadi. Buyoqlarning nomlari ko'pincha, qazilmadan qazib olingan joyning nomi bilan ajralib keli-nadi.

Masalan, buyoqlardan neopolitan sarig'ini olsak, bu sarg'ish malla rang bo'yoq Italiyaning Neapol shaxri atrofidagi tog'lardan vulqon bilan otilib chiqqan moddadan tayyorlanadi. Xalilovka oxrasi-oltin tusli bo'yoq bo'lib, Uralda Orenburg rayonida Xalilovka

qishlog'ida olinadi. Hind sarig'i-to'q sariq bo'yoq, Hindistonning Bengaliya shtatida o'sadigan xurmo daraxti yaprog'idan tayyorlanadi. Yana ayrim yorqin qizil bo'yoqlarni kichkina jonivorlardan-dub daraxtida yashovchi qo'ng'izcha (kattaligi 2-8 mm). Shimoliy Amerikada ya-shovchi qizil chuvalchangdan tayyorlanadi.

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim rol uynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni "quvonchli" va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo'lgan "xira" deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida karash shakllangan. Ammo rang hususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki, ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zargori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan ,qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiattan ikki xil xususiyati: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil ,sariq zarg'aldoq va ularga yashil ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek axromatik ranglardir.



Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir biridan faqat och-to‘qligi bilan farq qiladi . Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar . Xromatik ranglar esa bir–biridan rang tusi ya'ni -qizil, sariq , ko‘k, yashil, jigar rang va hakozi . Och-to‘qligi ya'ni och qizil, to‘q sariq, to‘q qizil, och sariq va to‘yinganligi ya'ni yorqin, xiraligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar “kontrast”ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko‘rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo‘lib ko‘rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg‘unligini, bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moy bo‘yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo‘yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo‘yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo‘lib, kishidan ranglarning xususi-yatlarini va ularni samarali, o‘quvli tarzda ishlatish usullari texnikasini bilishni taqozo etadi Buyoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirlashning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e‘tiborini qaratish kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko‘rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq yaqinligiga qarab o‘zgarib ko‘rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko‘rinishiga ta'siridandir. Qog‘oz sathida ranglar munosabatlarini to‘g‘ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o‘rinlidir. Akvarel bo‘yog‘ida ishlash ham o‘z navbatida jiddiy o‘qib o‘rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg‘ulotdir. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o‘rganib borishni taqozo etadi. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya'ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektrining barcha ranglari hamda ularning bir birlari bilan aralastiruvidan hosil bo‘lgan xamma

ranglar jumlasidandir. Shuningdek, oq rang bilan rang tushlari ham xromatik ranglar jumlasiga kiradi.

Xromatik ranglar axromatik ranglardan farqli o'laroq, faqatgina yorug'lik kuchlari bilan emas, balki nomlari, tushlari jihatidan xam ajralib turadi. Masalan, sariq rang qizil rangdan ham yorug'lik kuchi bilan, ham rangining tushi bilan keskin farq qiladi. Har bir xromatik rang uchta xossaga rang tushiga , rang yorug'ligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik ko'zda tutiladi), rang to'yinganligiga (bunda kam yoki ko'p yorqinlik ko'zda tutiladi ), rang to'yinganligiga (rang quyuvliligiga )ega bo'ladi. Har bir xromatik rang ana shu uchta xossaga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Rang tushi ranglarning to'liq uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu xossasiga ko'ra biz ko'z orqali qizil , sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko'ramiz hamda idrok kilamiz. Lekin rang tushlari ularga qo'yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko'pdir. Agar biror rangga tushining to'liqlar uzunligi o'zgarmaydi. Chunki oq rang qo'shilganda faqatgina rang yorqinligi o'zgaradi va qaytarish koeffisenti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lcham uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang tushlari spektr ranglariga kanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi shunchalik yaxshi buladi.

### **Nazorat savollar:**

1. Spektr nima?
2. Italiyaning qaysi shahrida qanday rang bo'yog'i olinadi?
3. Qanday ranglar xromatik ranglar deyiladi?

### **Rangning xususiyatlari.**

#### **Akvarelda ishlash texnologiyasi va usullari.**

Akvarel-lotinchacha so'z bo'lib, suvga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, akvareldan ishlangan rasm degan ma'noni bildiradi . Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo'llanilgan, XXI asrdan akvarelda yirik san'at asarlari ishlash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi. D.Kozens, Tyorner, D.Konstabel, R.Bonington, G.Gyorten kabi

rassomlar o'zlarining akvarelda ishlagan asarlarida Angliyaning go'zal tabiatini mohirlik bilan tasvirlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash san'ati XVIII asrdan e'tiboran keng yoyila boshladi. O'rta asrlarda Rossiyada bo'lganidek, G'arbiy Yevropada ham akvareldan Cherkovga qarashli bo'lgan diniy kitoblarni naqsh va illyustrasiyalar bilan bezashda foydalanildi. Lekin bu vaqtlarda akvarel oq bo'yoq moddasi qo'shilgan holda ishlatilar edi.

O'rta Osiyoda akvarelda kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida, ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustrasiyalar ishlashda shuxrat qozondi. XIX asrning oxirlarida akvarelda I.YE.Repin, V.A. Serov, M.A.Vrubel, kabi rassomlari o'z asarlarida yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rus tasviriy san'ati namoyondalari A.M.Grasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukrinskiylar N.N.Volkov, YU.I.Neprensev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar.



Ular yaratgan asarlarning ko'pchiligini kitoblarga ishlangan illyustrasiyalar tashkil etadi.

O'zbekistonda esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G.Shevyakov, G.Siganov, K. Cheprakov va ayniqsa CH. Ahmarovning ijodida ko'rish mumkin. Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablash uvi, takomillashuvi uning turlarini ko'payishiga va xilma – xillashuviga olib keldi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud.

Chunonchi qattiq, yumshoq va xamirsimon xoldagi akvarellar. Bu bo'yoqlar badiiy bilim yurtlarida, ayniqsa amaliy va dekorativ san'at o'kuv yurtlarida kompozitsiyalar, eskizlar tuzishda qo'llaniladi. Akvarel bo'yoqlari ikki qismdan: bog'lovchi element hamda bo'yoq kukinidan tarkib topadi. Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni tanlashda bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalanadi.

Bog'lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralardan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan, masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez-qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, glisirin, dekstrinlar qo'shiladi. Bog'lovchi modda tayyorlanayotganda har bir element ko'rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi.

Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning dekstrining suvdagi eritmasi meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Meva shakari suv bilan aralashtirilib sirobsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to'xtovsiz aralashtiriladi. Hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenaldan keraplicha tomiziladi. Chinni idishlardagi yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq miqdorda oshrib meva shakari o'rniga asalari mo'mi va glisirin qo'shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi bog'lovchi elementining ko'pchilik qismini asal tashkil etadi. Glisirin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonlarda o'raydigan pigmentlardan masalan, jigar rang, qarminli bo'yoqlardan tayyorlanadi. Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-biriga yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Masalan, qo'yidagi bo'yoq kukunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Sariq kukunlar tabiiy, jigar, rang, sariqmars, zarg'aldoq mars va hakozolar.

Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli ranglar.

Zangori: zangori laklar.

Jigarrangli kukunlar : kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars.

Qora kukunlar : -uzumdan olinadi.

Akvarel tayyorlash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralastiriladi tosh plita yoki mahsus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erishsa, aralash-tirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan xisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, qo'yilgan akvarel bo'yog'i qurilganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib olishadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi.

Endi akvarel, tush va ularni ishlatishda qo'llaniladigan ba'zi qurol va vositalar haqida to'xtalib o'tamiz:

1. Bir akvarel mo'yqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yubqa qalam tarzida o'tishi tekis, silliq surkalishi, qo'yilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa, xaddan tashqari qo'zbekiston Respublikasi qishab ketib, uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'u va sliqin joylarda saqlash lozim.

Agar tyubikdagi akvarel qotib qolsa tyubikka mris bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatli akvarellardan xisoblanadi va u plastmassa idishlarda ishlab chiqariladi. Unda bo'yoqlarning 24 hili mavjud bo'lib, plastmassadan tayyorlangan palitra ham joylashtirilgan.

2. Tush asosan yozish-chizish, bezak va boshqa ishlarda keng qo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. Tushlar suyuq holda shisha idishlarda va taxtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi.

Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ulardan axromatik ranglarning har xil tuslari xosil qilinadi. Tushni juda quyuq ish-latilmaslik lozim. Ular etyudlar uchun muljallangan bo'lib, 20-30 donasi kerakli o'lchamda bir-birlariga yelimlab qo'yilgan bo'ladi. Qog'ozlarni bir-birlaridan ajratib olishda birorta uchi o'tkirroq asbobdan foydalaniladi. Orqasiga qo'yilgan karton esa uni g'ijim bo'li-shidan asraydi.

3. «Stirator» bittasi kattaroq, ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birini ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat ishlatishda qo'llangan qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib siqib jiplashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilganidan keyin uni tizza ustiga g'o'ygan holda ishlatish mumkin. Shuningdek stirator oyog'siz holda ishlatilganda esa mahsustutqichga o'rnatiladi. Stiratorga tortiladigan qog'oz oldin suvga ho'llab olinadi. Qog'ozni ho'llash uchun yumshoq lattadan foydalaniladi. Burchaklarida 1,5-2 smgacha joy quruq qoldiriladi. Qog'ozni ikki tomoni ham xuddi shu zaylda qo'llaniladi, so'ng ramkaga tortilgan qog'oz o'zgarmas temperaturali joyiga qo'yib quritiladi. Stirator asliga qarab rasm ishlashda va manzaralarni tasvirlashda qulaydir.

4. Planshet tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishida uning to'rttala tomoni 1,5-2 sm buklanadi.

Qog'ozning teskari tomoni jiqqa ho'l latta suvini o'ziga shishib olguncha surtiladi. Chetga qayrilgan burchaklari eng quruqligicha qondiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirib g'o'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkizmasdan ho'llanadi. Undan keyin burchagidan bir tomoni, so'ngraqaramaqqarshi turgan tomoni bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni ham xuddi shunday diagonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qistiriladi. Qirralari esa barmoq yordamida tekis qilib yopishtirib chiqiladi. Yelimlangan tomonlarida xech qanday tirishgan va qabariq joylar bo'lmasligi lozim. Qo'l planshet mo'tadil temperaturali joyga qo'yib quritiladi. Shundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

5. Yig'ma qopchiq ham etyudlar ishlashda ekskursiyalarga chiqqanda juda as qotadi. Uni brezent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin kerakli jixozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim. Uning yuqori qismiga tasmalar tikib qog'oznimaxkamlab qo'yish kerak. Pastki qismiga esa xar-xil o'lchamdagi cho'ntaklar tikiladi. Cho'ntaklarga esa maxsus idish, katta akvarel va xakozolar solib olinadi. Materialni tikayotganda orasiga karton bo'laklarini kerakli o'lchamlarda qo'yish tavsiya etiladi. Qo'yilgan karton bo'laklar qog'ozlarni buklanib qolishidan saqlaydi.

6. Mo'yqalamlar. Akvarel bilan ishlayotganda foydalanish lozim, mo'yqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvayerel bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga muljallangan (yelimlash uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar uchun mustasno). Ularni ko'rinishiga qarab quyidagicha farqlash mumkin. Yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun muljallangan mo'yqalamlar kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi). Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib uch tomoniga qarab ingichkashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Rasm ishlaganda qog'ozni yuzi buzilmaslik uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshok yunglardan yasaladi. Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvga tiqib olib silkitish kerak. Agar shunga mo'yqalamning uchlari to'planib qolsa-yaroqli, to'zib tursa-yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamning bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi. Shuning uchun akvarel bilan ish ishlashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniladi, chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Yuqorida nomeri ko'rsatilgan yo'g'on xajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin, uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umumman olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bujara olish imkoni tug'iladi. Shunda ko'z hamda qo'l xarakati uyg'unlashadi. Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. Ularga maxsus buyurtma berish tayyorlatish mumkin.

Bulardan tashqari, xar-xil o'lchamdagi kurakchasimon, yalpaq mo'yqalamlar ham ishlatiladi. Endi mo'yqalamlarni ishlatishning bir qator usullari haqida gapirib o'tamiz. To'g'rirog'i, bu usullar, tavsiya etilayotgan yo'llanma bo'lib, ular umumiy qoida tarzda qo'llanilmaydi. Chunki ba'zi mo'yqalamni boshqacharoq vaziyatda ishlatishga to'g'ri kelib qoladi. Bordiyu, mo'yqalam bilan keng yuzalarni bekitishga to'g'ri kelsa, uni burchak ostidan ushlab hamda ishni qog'ozning tepa qismidan uzib-uzib bo'yoq berishdan boshlash zarur. Bunda mo'yqalam qog'ozning chap tomonidan pastka va ayni vaqtda o'ng tomonga qaratib tez-tez xarakatlantiriladi. Agar yupqa va tirnoq bo'yash kerak bo'lsa, mo'yqalam tik ushlanadi, hamda ohistagina qog'oz bo'ylab yur-giziladi.

Kuchli mazok hosil qilish (uzib-uzib bo'yoq berish) uchun mo'yqalam kerakli joyga qattiqroq bosiladi va darhol ko'tarib olinadi. Oqib ketayotgan bo'yoq esa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi.



Xomaki rasm ishlashda kerakli bo‘yoqni o‘z ichida birndaniga qo‘yish aloxida maxorat talab qilinadi. Lekin mo‘yqalam qog‘ozga oxirigacha bosib yuborilsa, hamma bo‘yoq birdaniga oqib tushib ketishi mumkin.

Qo‘yilgan mazoklarni xarakterli bo‘lishi muxim axamiyat kasb etadi. Mo‘yqalamlarni ishlatayotganda ayniqsa uning mo‘y qismi tez ishdan chiqishini unutmazlik kerak. Bo‘yoq olinayotganda mo‘y-qalamni xaddan tashqari ko‘p ishqalash tavsiya etilmaydi, sababi mo‘y qismi tez to‘kilib keatdi. Bunda mo‘yqalam bo‘yoq ustida oldinga va orqaga hamda chapga va o‘nga tomon tez-tez, yengil-yengil yur-giziladi. Bir marta bo‘yoq olinganidan so‘ng, ikkinchi olishga mo‘y-qalam dastavval tozalab yuviladi va latta bilan siqib tashlanadi. Toza suvga botirib olinganidan keyingina navbatdagi bo‘yoq olinadi.

Dastlab sakkiz nomerlaridan to o‘n, o‘n ikkinchi nomergacha bo‘lgan mo‘yqalamlarni ishlatish mumkin. Keyinchalik esa, o‘n ikki, o‘n turt nomergacha, balki undan kattaroq nomerli mo‘yqalamlar ham ishlatiladi.

Mo‘yqalam ishlatilib bo‘lingach, tozalab yuviladi va latta bilan siqilganidan so‘ng tirkakka solib qo‘yiladi yoki mo‘y qismi yuqoriga qilingan holda stakanda saqlanadi. Ba'zan mo‘yqalamni yung qismini stolning chetidan bir oz chiqarib qo‘yish ham mumkin.

7. Palitra. Tasviriy san'at darslarida oddiy, oq rangdagi yassi laganchadan palitra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishlash paytida metallardan yasalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan palitalardan foydalangan ma'qul. Palitraning eng yaxshi tomoni shundaki, unga qo‘yilgan bo‘yoqlar aniq va ravshan, tiniq bo‘lib ko‘rinib turadi. Shuningdek uzoq vaqtgacha qurilmasdan saqlanadi. Palitiraning rangi oq bo‘lganligi sababli bo‘yoqlarni tuslari o‘zgar-masdan ko‘zga tashlanadi. Palitradan foydalanish usullari va unga bo‘yoqlarni joylashtirish tartibi ko‘rsatilgan. Bo‘yoqlar ko‘zga qanchalik yaqin bo‘lsa ularni bir-birlarini ajratish ham shunchalik oson va qulay bo‘ladi. Politranga ranglarni joylashtirishda muayyan tartibga rioya qilish talabalarning sifatli ishlashlariga, ko‘zlari va

qo'llarining avtomatik ravishda xarakat qilishga, ishni tez bajarishlariga yordam beradi va ularni ortiqcha qiynab qo'ymaydi.

Politrage oldin iliq ranglardan sariq bo'yoqlar, keyin zarg'oldoq qizil, rang yoki jigar ranglar va nihoyatda zangori, binafsha ranglar (bular sariq ranglar jumlasidandir) qo'yiladi. Politrage qo'yilgan bo'yoqlarni bir-biri bilan aralashtirishda iflos mo'yqalamlardan qat'iyman qilinadi. Shu tariqa politradagi bo'yoqlar toza saqlanadi. Ish tamom bo'lgandan so'ng politra yaxshilab tozalab qo'yiladi, ayniqsa politraning suv tekkan joylari yaxshilab artiladi.

8. Stakan suv olish uchun eng yaxshi idish hisoblanadi. Ekskursiyalarda, etyud ishlashda metal yoki shishastakanlar bankalar juda qo'l keladi. Akvarel bilan ishlashda suv olish uchun qo'llaniladigan idishlarning turlari har-xil bo'lishi mumkin.

9. Qalamlar akvarel bo'yog'ida ishlangan rasmlarning yaxshi chiqishida muxim rol o'ynaydigan vositalardan biridir. Tasviriy san'at darslarida asosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi. "TM" markali qalam chizish uchun juda qulaydir. Qalamlarning tomonida nomi, so'ngra esa qattiqroq yoki yumshoqlik darajasi yozib qo'yiladi. «T» qattiqlik ma'nosini anglatadi, uning yonidagi son qattiqlik darajasini ko'rsatadi. «2T» belgili qalam «T» belgili qalamdan qattiqroqdir. Tasviriy san'at darslarida qattiq qalamdan nafis joylarni shtrixlashda foydalaniladi. Ular chizmachilik darslarida ham qo'llaniladi. Yumshoq qalamga «M» belgisi qo'yilib, yumshoqlik darajasi sonlar bilan ko'rsatiladi.

Rasmning sifati ko'pincha qalam o'zining yechilishiga bog'luq bo'ladi. Rasm chizish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish maqsadida qalam uchini dars yoki mashg'ulot boshlanishidan oldinroq qo'ygan ma'qul. Qalamni ish joyida ochmaslik lozim, chunki grafitning ko'zga ko'rinmaydigan zararlari rasmni iflos qilib yuboradi. Eng yaxshisi qalamni quticha yoki qog'oz parchasi ustida ochishdir. Bunda chiqindilarni maxsus yashikka tashlash oson bo'ladi. Qalamni haddan tashqari bosib chiqish yaramaydi. Chunki uning uchi sinib qolishi mumkin.

O'quvchilarni qalamni ochilgan yeridan uzunroq ushlashga o'rgatish yaxshi natija beradi. Qalam umuman uchta barmoq bilan ushlanadi va unchalik qattiq siqib olinmasdan erkin yuritiladi. Uzunroq qalamlardan foydalangan ma'qul. Chunki kalta qalamlarda naturaning o'zaro nisbatlarini o'lchab chizish qiyinlashadi. Siyoh rangli qalamlarda rasm chizish mumkin emas: chiziqqa suv tegsa, bo'yalib ketadi. Qalam bilan chizishda aniqlik, puxtalik va malakali bo'lish talab etiladi.

10. O'chirg'ich. O'chirg'ichlar ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan hamda idoralar uchun chiqarilgan bo'ladi.

Noto'g'ri chizilgan tasvirni o'chirishdan oldin to'g'rilab chizib olish lozim. Shunday qilingan xato yaqqol ko'rinib turadi. O'chirg'ich bilan o'chirishdan qo'l faqat chizish bo'ylab bir tomonlama harakatlantiriladi. Shuningdek, o'chirg'ichni hadeb ishlativerish ham yaramaydi. Unda qog'oz yuzasiga bo'yoq yaxshi yotmaydigan bo'lib qoladi. O'chirg'ichni qo'lda uzoq ushlab turish mumkin emas. Chunki o'chirg'ich qo'lda ter bosib, qog'ozni kir qilib qo'yish mumkin.

Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishlashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvarel bilan ishlashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlardan ehtiyot qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim. Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishlash monoxrom yoki grizayl metodida ishlash deb ataladi.

Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo‘yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1. Kerakli bo‘yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog‘oz bo‘lagiga surtib, sinab ko‘riladi.
2. Qog‘oz sirtiga bo‘yoq berayotganda mo‘yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingan bo‘lishi kerak.
3. Ostki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo‘yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo‘yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.
4. Akvarel bo‘yoqlari bilan ishlashda oq bo‘yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo‘yoq rolini oq qog‘ozning o‘zi bajaradi.
5. Qo‘yilgan bo‘yoq qavati ostidan qog‘ozning sirti sezilib turishi lozim.

Agar taxtacha ko‘rinishidagi akvarel ishlatilsa, bo‘yoq tez-tez ho‘llab turiladi, hamda toza mo‘yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishlashni o‘rganishda amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo‘yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo‘yilgan xar ikkala rang ostidan ham qog‘ozning sirti sezilib turmog‘i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo‘llarini puxta o‘rganish kerak.

Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo‘li bilan ham qo‘shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda qo‘yilgan ranglarning yorug‘lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplab tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug‘likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo‘ladi. Lekin oldin qo‘yilgan bo‘yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to‘yinganligi muhim ahamiyatga ega. Ustki qo‘yiladigan qavati esa doimo oxangdor, juda tiniq bo‘lishi va ostidagi rang tusini bo‘g‘masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to‘q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko‘zga tashlanadigan rang dog‘chalari hosil bo‘lishi mumkin.

Akvarel bilan ishlatishda bir rangning o‘zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak.

O‘quvchilarga yorug‘ , oq tusdagi rangni hosil qilish uchun suvni, tuq tusdagi rangni hosil qilish uchun esa bo‘yoqni ko‘proq qo‘shish kerakligini o‘rgatish kerak. Och tusdagi rangning hosil bo‘lishini amalda ko‘rsatish uchun suvli stakanga qizil rang aralashtiriladi. Stakanda hosil bo‘lgan aralashmaga suv qo‘shishni davom ettirsak, bu rang tusining ochlanib borishining guvohi bo‘lamiz. Aksincha, aralashmaga qizil rang qo‘shishni davom ettirsak, mazkur rang tusining to‘qlashib borishini ko‘ramiz. Bu xildagi mashqlarni faqat ranglar yordamida bir necha marta bajarib ko‘rish mumkin.

Ranglar to‘yinganligini asta-sekin o‘zgarib borishi haqida alohida to‘xtalib o‘tish kerak. Agar xromatik ranglar tarkibiga axromatik ranglar qo‘shilsa, ularning tiniqligi pasayadi. Natijada rangning to‘yinganligi o‘zgarib, boshqa rang tusi hosil bo‘ladi. Kul rang qanchalik ko‘p qo‘shilsa, xromatik rang shunchalik axromatik bo‘lgan kul rangga yaqinlashib boradi. Bu xildagi yorug‘lik kuchlarini kamaytirish natijasida ranglarning tiniqligini yo‘qotish hamda xira ko‘rinishdagi ranglar olish mumkin. Rang tuslarini bir-birlaridan farq qilishni o‘rgatishda bir rangning har-xil tuslari orqali naqsh kompozitsiyasini ishlash kerak.

Akvarel bilan ishlash malakalarini oshirishda asosiy va qo‘shimcha ranglar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Rang ustida ishlash usullari ikki qismga: asosiy ranglar va qo‘shimcha ranglarga bo‘lib o‘rganiladi. Olingan rang tuslari esa o‘zaro solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Qo‘shib topiladigan ranglar aralashtirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Buning uchun dastlabki mashqlarni nabordagi tayyor bo‘yoqlarni qo‘shib topishdan boshlash lozim. Bunga quyidagi

jadvalda ba'zi bir misollar keltiramiz. Asosiy hamda qo'shib topiladigan ranglar ustida mashq qilinaotgan paytda naturaga yaqin bo'lgan rang tuslarini topish kerak. Bundan tashqari, pardoqlangan siliq sirtlarga, oynaga, metall shartlari atrofdagi buyumlarning tasvirlari tushadi va ularning ranglari ham boshqacharoq ko'rinishda bo'ladi.

Akvarel bilan ishlashda bu xildagi usullardan ham foydalana bilish lozim. Ranglarning bu xususiyatlari refleks taassurotini paydo qiladi hamda ishlanayotgan naturaning eng muhim qismini tashkil etadi. Akvarel va mo'yqalamlar bilan ishlashni o'rganishda dastlabki mashqlar muhim rol o'ynaydi.

### **Nazorat savollar:**

1. Spektr nima?
2. Rangning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Akvarel bo'yog'ini qanday ishlatish usullarini bilasiz?

## **ILIQ VA SOVUQ RANGLAR HAMDA ULARNING RANGTASVIRDA QO'LLANILISHI**

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha

ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, Bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralash-tirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tish mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak o'quv mashg'ulotida rang- tasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'r-satish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa natyurmortdagi narsalarning och- to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rga nish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Natyurmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda natyurmortni ishlashdan avval uning rang xususi-yatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir. Chunki xona ichiga qo'yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan

soylar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug' qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'rnida jo'yali qo'llash muhimdir.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holida bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchaning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo'lishi mumkin. Ya'ni: limon rang qadimiy, sariq qadimiy, och oxra, tabiiy siyena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq qadimiy, qizil oxra, kuydirilgan siyena, och qizil, guldor, qizil kraplak. Karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, havo rang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to'q jigar rang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo yetuk rassom ranglarning uzaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi.. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir havo rang, yashil, zangori tusalarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonda bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. Har xil bo'yoqlar bilan



(akvarel, guash, moybo‘yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o‘tkazib ko‘rish, bo‘yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o‘zlashtirish uchun ko‘plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

### **Nazorat savollar:**

1. Axromatik va xromatik ranglar deganda nimalarni tushunasiz?
2. Asosiy va qo‘shimcha ranglar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Bo‘yoqlarning turlari, ranglarning xususiyatlari to‘g‘risida qanday ma'lumotlarga egasiz? Ularning texnologiyasi haqidachi?

### **GUASH BO‘YOG‘IDA ISHLASHNING YO‘LLARI.**

Guash bo‘yog‘i akvarel bo‘yog‘ining tamoman aksi bo‘lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug‘likni yutganligi sababli uning tagidagi qog‘oz ko‘rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akva-relniki singari – bo‘yoq kukuni va uni bog‘lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog‘och yelimi bilan mtadil nisbatlarda aralash-tirilgan bo‘ladi. Guash bo‘yog‘ining yana bir muhim jihati uning oq bo‘yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo‘yoqni ishlatish uchun mo‘y-qalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo‘l-masligi, bir oz dag‘alroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ish-lanadigan sath, ya'ni qog‘oz yoki karton ham silliq bo‘lmagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov beril-gan bo‘lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo‘yog‘ini yaxshi surtish mumkin bo‘ladi. Guash ko‘pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman rang-tasvirlarni bajarishda foydalaniladigan, suv qo‘shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo‘yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo‘yoq surtilgan paytda to‘q, qurigandan keyin esa ochlashib ko‘rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa, ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy

ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yog'ida juda ko'p o'tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma'lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviriy san'ati xazinasidan o'rin olgan. Ammo shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo'lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuc qilib ishlanganlarining bo'yoqlari o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'yog'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'qul. Shunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishiga erishiladi. Mo'yqalamlarning turli o'lcham-lardagisi va yumaloq hamda yapaloq ko'rinishdagilaridan foydalaniladi. Ayniqsa, yapaloq mo'yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarni ishlashda juda qulaydir. Guash bo'yog'ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo'ladi. Tasvir ishlashning yo'l-yo'rig'i, usullarini puxta egallash esa ko'p amaliy mashg'ulotlarni talab eta-digan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozisiya losihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko'ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. Chunki ijodkorlar bo'yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilan qo'llaganlar. Asarlarning biri quyuc bo'yoq qatlamidan foydalanib ishlangan bo'lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. Shunday

asarlar ham borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. Ya'ni ham akvarel, ham guash texnologiyasi ustalik bilan qo'llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V. Serov, K. Yuon, V. Kustodiyevlarning ijod namunalarini qo'shishimiz mumkin. Shunisi ham qiziqarliki, ayrim rassomlar akvarel bo'yog'ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara berganligi ko'rinib turadi. Bunday asarlarga S. Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Guash bo'yog'ining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo'lib, uning nomi «fluorescentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun'iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko'rinishidir. Chunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko'k, yashil nurlardan g'ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch marta kuchli rangda tovlanib ko'rinadi. Shu sababdan bunday bo'yoq turi teatr bezakchiligida keng qo'llanmoqda. Uning ta'sirchan yarqirab ko'rinishi uchun odatda kvarts lampalarni nuridan ham foydalanish bo'lmoqda.

O'quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa natyurmortlarni ishlashda guash bo'yog'idan foydalanish juda ham qo'l keladi. Uni moybo'yoq tasvirlar ishlashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek, turli kompozitsiyalarning eskizlarini o'quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishlash mumkin.

### **Nazorat savollar:**

1. Guash bo'yog'ining asosiy, o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'la-di?
2. Guashda tasvirlar ishlash yo'llari, texnika va texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Guash bo'yog'i asosan qaysi san'at turlarida va janrlarida ishlatiladi.

## **RANGTASVIRDA KOMPOZISIYA FANINING AHAMIYATI.**

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozitsiyasi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko‘rib chiqaylik. Buning uchun kompozitsiyaning son bog‘liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o‘taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o‘lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o‘lcham tomonlarining o‘zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug‘lik manbaining holati, soya-yorug‘ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug‘ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog‘lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob'yektlar bo‘laklarining o‘zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug‘, o‘lcham) kompozitsiya unsurlarining fazodagi ko‘rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.



Yuqorida keltirib o‘tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o‘lchash va sanab ko‘rsatish mumkin. Kompozitsiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko‘rish orqali qabul qilish mumkin bo‘lgan

belgilarni kompozisiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanib, o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi. Sondagi kompozisiya sifati-ni ta'minlovchi, fikrni to'liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmuni kompozisiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanos iblik, o'lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylikdir. bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta'minlaydi. Natijada asar kompozisiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma'no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozisiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har tomonlama yutuqqa erishadi, kompozisiya bekamu-ko'st bo'ladi. Ma'lumki, kompozisiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birin-chisining belgisi – kompozisiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) riojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinat chuqurlik qolgan ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozisiya amaliy – bezak kompozisiyalarida ko'p qo'llaniladi, hajm-fazoviy kompozisiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik-fazoviy kompozisiya predmetlarni kartina teksligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozisiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozisiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozisiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozisiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinli bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozisiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

### **Nazorat savollar:**

1. Kompozisiya nima?
2. Kompozisiya tuzish qonun-qoidalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Kompozisiya ustalari bo'lgan qaysi rassomlarning nomlarini va asarlarini bilasiz?

### **Interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining faktorlari.**

Ma'lumki tasviriy san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozisiya masalalarini hal etish jarayonida interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini to'g'ri ochib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda kata ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, interyer ko'pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalaniladi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozisiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona

ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozisiyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqoza etiladi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko‘rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozisiyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriy jixatlari bo‘sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozisiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtni, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovr aniq, tiniq ko‘rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqur va qiziqarli chiqishi natyurmort qo‘yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni interyerning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog‘liqdir. Chunki ular orqali kompozisiya g‘oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug‘iladi. O‘sha har biri o‘zicha muhim bo‘lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to‘liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozisiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko‘rsatib beriladi. Chunki ular kompozisiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmuni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma'lumki o‘quv mashqlaridan, kompozisiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozisiyaning o‘lchamini, tomonlarining rang va to‘q - ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o‘z oldiga qo‘ygan g‘oya tasvirini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo‘nda, qiziqarli chiqishida xizmat qiladi.

Xona ichini kompozisiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko‘pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o‘tasada, unga muhim bo‘lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalani, interyerni chiziqli perspektiva holati to‘g‘ri topilmas ekan kompozisiyaning fazo viy o‘lchamlari va ifodaviylikning haq-qoniy aks etishi mumkin bo‘lmay qoladi. O‘z

navbatida atrof-muhit ham kompozisiyaning umumiy g'oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak – interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tasvirlanadigan zarur kompozisiyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondashish zarur. Interyerda aks ettiriladigan har turli kompozitsiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, qoralama-lafha suratlar ishlanishi kerak. Ulardan foydalangan holda kompozitsiyada xonaning qanday qismi tasvir etilishi topiladi. Perspektiva ko'rinishining qurilishi tahlil etib belgilab olinadi. Bunda albatta rang, fazoviylik holatlari tus, soya-yorug'lik munosabatlari orqali ifodalanadi.

### **Nazorat savollar:**

1. Kompozisiyaning eng muhim unsurlari nimalardan iborat?
2. Kompozitsiyadan makon, atrof-muhit, vaqt qanday aks ettiriladi?
3. Kompozitsiyada perspektiva qonun-qoidalarining tadbiiq etilishi to'g'risida nimalarni bilasiz?

### **Rangtasvir mashg'ulotlariga tayyorgarlik**

Ishni boshlashdan oldin albatta yosh rassomlar natura bilan obdon tanishadilar va o'zlariga yoqadigan joy tanlab, vazifani bajarishga kirishadilar, o'zlarini ishga tayyorlaydilar. Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun ulardan yaxshi kayfiyat bo'lishi bilan birga shu vazifani uddalay olishga qattiq kirishish kerakligi tushunchasi ham bo'lishi darkor. Ishga sovuqqonlik bilan qarash yaxshi natija bermaydi.

Chizuvchi yangi ishni boshlashdan oldin shu natura haqida kengroq tushuncha olmog'i, uning tarixi, badiiyligi, konstruktiv tuzilishi, yaxlitligi haqida fikr yuritmog'i, bundan tashqari naturani bir nechta ko'rinishda ishlangan namunasi bilan tanishmog'i kerak. Ishga



kirishishdan avval natyurmort haqida keng va batafsil tushuncha olib o'zlari uchun mustaqil ish rejasini yaratadilar.

Natyurmortning chiziqli tasviri. Natyurmort postanovkasini maqsadga muvofiq o'rnatib olgandan so'ng, uni metodik izchillikda tasvirlashga o'tiladi.

Qo'yilgan natyurmortning asosiy g'oyasini surat tekisligida tasvirlab berish uchun, ya'ni natura bilan tasvir o'rtasida to'la o'xshashlikka erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari bo'lgan kompozisiya, perspektiva, yorug'-soya va rangshunoslik nazariyalarini puxta bilish va ularni amalda qo'llay olish talab qilinadi. Alohida narsalarni asliga qarab tasvirlash vaqtida bilim va ko'nikmalar hosil bo'ladi. Lekin natyurmort ishlashda vazifalar ancha murak-kablashadi. Endi vazifa bitta narsani emas, bir necha narsani o'zaro bog'lanishida qismlarni bir-biriga mos bo'lgan yaxlit tasvirlab ko'r-satishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun amaliy ishning ketma-ket bosqichlar bilan olib borish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, qo'yilgan natyurmortni diqqat bilan kuzatib, uni tahlil qilib olinadi. Kompozisiyani ijodiy masalalari, asosan postanovka (natyurmort tuzish) qo'yish vaqtida hal etilgan bo'ladi ya'ni natyurmort qismlari o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lib, hamma narsa birgalikda, yaxlit bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turmog'i lozim. Lekin unga har xil nuqtalardan qaraganda umumiy ko'rinishi ham, qismlarning o'lchamlari va nisbatlari ham o'zgarib boshqacharoq ko'rinib qolganini sezamiz. Demak, natyurmort tasvirining ta'sirchan bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadga to'la erishish uchun qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng qulay va qiziqarli ko'rish nuqtasini topish kerak. Buning uchun har hil joyga o'tirib yoki turib, naturaga yaqinlashib yoki uzoqlashib qarab ko'rish kerak bo'ladi. Bunda har gal kuzatuvchi ko'zlarning balandligi o'zgarishi bilan birga ufq chizig'i va ko'rish markazi o'zgarib turadi. Qo'yilgan natyurmortga nisbatan eng yaxshi ko'rish nuqtasini topib, ufq chizig'ini shunga muvofiq belgilab olish muhim ish bo'lib, tasvirning umumiy kompozisiyasi ko'p jixatdan unga bog'liq. Natyurmort tasvirini surat

tekisligida to‘g‘ri joylashtirish bir qator masalalarni hal etishni talab qiladi. Shuning uchun ishni boshlashdan oldin bir necha hajmli xomaki rasm bajarib ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Chizilgan eskizlardan eng muvaffaqiyatli chiqqanini tanlab, shu asosda katta original tasvir boshlanadi. Endi originalni surat tekisligiga nisbatan qanday kattalikda olinishiga alohida e'tibor berilishi loim, chunki ayrim narsalar tasviri juda kata bo‘lib ketib, hamma predmetlar sig‘may qolishi mumkin. Yoki narsalar tasvir formatga nisbatan juda kichik bo‘lib qolib trofida bo‘sh joy qoldirilsa, natyurmortning ma'nodorligi yo‘qoladi.

Tasvirni qog‘oz yuzasida to‘g‘ri joylashtirish masalasi hal bo‘lgan har qanday tasviriy san'at asarining poydevori bo‘lgan chiziqli rasmni boshlasa bo‘ladi. Qo‘yilgan natyurmortning umumiy holati, prinsiplari aniqlangach, qog‘oz yuzasida uning umumiy o‘lchamlari yengilligi va balandligi yengil-yelpi chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Har bir narsaning umumiy shakli qismlarning nisbiy o‘lchamlari va predmetlarning asoslari orasidagi masofalar ham ohista chiziladi. Bu ishlar qalamni qog‘oz yuzasida tez-tez yurg‘azib, natyurmort bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi predmetning o‘zicha shakli, katakchilikligi, tutgan o‘rni aniq bo‘lgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatib, u shakllardagi perspektiv qisqarishlar kuzatiladi. Predmetlarning shaklini tahlil qilish chiziqli rasm ishlashda g‘oyat ma'suliyatli bosqichdir, chunki u rasm ishlovidan mantiiqiy fikr yuritishni va obrazli tasavvur qilishni talab etadi.

Mashxur rus pedagogi va rassom P.P. Chistyakov: «Rasm solmoq fikr yuritmoq demakdir»-deb bejiz aytmagan. Har bir o‘tkazilgan chiziq qandaydir aniq fikrning ifodasi bo‘lmog‘i lozim. Shunda narsalar shakli. qismlari orasidagi mutanosiblikni, konstruktiv tushunishni osonlashtiradi. Ayrim narsalarning konstruksiyasi deganda uning qismlari orasidagi ichki bog‘lanishlarni, tashqi ko‘rinishini ifodalovchi sinchini tushunishi kerak.

Predmetlarning surat tekisligida joylashtirish vaqtida, albatta ularning asoslarini to‘la chizib chiqish kerak. Bu tadbir har qaysi

predmetning o'rnini va alohida narsalar o'rtasida qolgan masofani to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Shunday qilinganda ba'zi narsalarning «muallaq» bo'lib qolishi yoki bir narsaning ikkinchisiga o'yib kirgandek tuyulib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Umuman, hajmdor narsalarning rasmini chizganda, ularni shishadan yasalgan tiniq deb faraz qilib, uning ko'zga yaqqol ko'rinmaydigan jihatlarini ham bilinar-bilinmas chizib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chiziqlar vositasida hajmlarning chegaralarini belgilash bilan birga ularning shakllarini yanada aniqroq bo'lishiga erishishning yana bir yo'li yirik shtrixlar bilan shaxsiy va tushuvchi soyalarni qoralab olishdir. Bu tadbir narsalarning mutanosibligini yanada ta'kidlash va shakllarini aniqroq tasvirlashga olib keladi.

Natyurmortdagi narsalarning fazoviy holati va hajmini realistik tarzda tasvirlash uchun ularning qay holatda turganini aniq chizish bilan bir qatorda perspektiva va yorug'-soya qonunlarini puxta bilish va ularni amalda qo'llash yuzasidan ma'lum ishlar olib borish kerak bo'ladi. Predmetlar shaxsiy va tushuvchi soyalarning chegaralari topilgandan keyin, har bir narsaning yorug' soya, siyrak soyalari birma-bir ranglar yordamida ishlab chiqishga o'tiladi. Har bir narsaning hajmdorligi va materialni haqqoniy qilib tasvirlash uchun natura bilan tasvirdagi soya, yarim soya va reflekslarning nisbiy munosibligiga erishishga harakat qilish kerak. Buning uchun esa natyurmortdagi eng to'q soya yorug' yerlarni aniqlab olib ana shu eng to'q soyadan boshlash lozim. Ana shu paytda natyurmort rangiga xos umumiy och to'qlikni to'g'ri aniqlash g'oyatda muhim. Buning uchun natyurmort yoniga bironta qop-qora narsa qo'yib qaralsa, eng quyuq soya ham unga nisbatan oqishroq bo'lib ko'rinadi. Agar shu narsa natyurmort tarkibida bo'lganda, qoralashni o'shandan boshlash va qora qalamni bor imkoniyatidan foydalanish lozim bo'ladi. Natyurmortdagi hech bir narsa qoraligi baxmalga teng kelmasligini hisobga olib, soyalarni bir oz kuchsizroq tonlarda berishimiz kerak. Xudi shu yo'l bilan natyurmortdagi eng yorug' yerning och-to'qligi darajasini aniqlasa bo'ladi. Endi natyurmort yoniga aniq narsa, oq

qog'oz parchasi yoki bir bo'lak bo'r qo'yilsa bas, natyurmortdagi eng yorug' dog'ni ham taqqoslash imkoniyati tug'iladi. Alohida predmetlarning yorug' va soya yerlarni taqqoslash vaqtida albatta, ularni fonga nisbatan qanaqa ko'rinib turganini aniqlash zarur. Odatda, predmetning soya tomonidagi fon ochroq, yorug' tomonidagi esa, aksincha to'qroq ko'rinadi. Bu yorug'lik kontrasti bo'lib, rasm chizilganda uni albatta hisobga olish kerak. Predmetning yorug' tomonidagi to'qroq, soya tomoni ochroq qilib tasvirlash, natyur-mortdagi yorug' va soyalar qarama-qarshiligini yaqqol ko'rsatishga yordam beradi. Narsalardagi soya, yarim soya, refleksning har birini och-to'qlik darajasiga monand qator o'ziga xos ranglar bilan ranglar chiqish, chiziqlarning va aynan shu narsaning shakliga monand ranglar yo'nalishni topishga harakat qilish kerak. Masalan: silin-dirsimon idishning hajmdorligini ifodalash vaqtida soya va yarim soyalarni pala-partish chizib tashlansa, uning silliq yumaloq sirtini aniq ko'rsatib bo'lmaydi.

Yumaloq sirtning har bir bo'lakchasi yorug'dan – soyaga o'tishda asta – sekin ranglari to'qlashib boradi. Lekin eng qo'yuq soya predmetning chekkasida bo'lmay, markaz tomonga bir oz surilgan bo'ladi, chunki eng chekkada uning yonidagi narsadan yoki tekislikdan aks etgan nurlar, tekislikda aks etgan nurlari bilan yoritilgan joy refleksi bo'ladi. Narsaning yorug' qismi o'rtasida dog' ko'rinadi. Bu blikdir. Sirtlarni silliq shisha, metal buyumlarida blik yaltirab turadi. Hamma narsaning hajmdor shakliga diqqat bilan ishlov berilgach, natyurmort ishlashning oxirgi bosqichiga o'tiladi. Natyurmortning rangda tasvirlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

### **Qo'yilgan natyurmortni sinchiklab tahlil qilish;**

1. Surat tekisligida tasvirni joylashtirish;
2. Har bir predmet o'lchamini perspektiva qoidalari asosida taqqoslab belgilash.
3. Narsalarning hajmdorligini yorug' va soyalarini rang fazoviy perspektivasi orqali ifodalab berish. Tasvirdagi yorug' soya reflekslarni ranglar nisbatini topib, ularni natura bilan munosabatini ifodalash;

4. Rasmni umumlashtirish, ortiqcha joylarini yo‘qotib ton nisbatlarini tekshirish, kompozisiya markazini ranglar yordamida bo‘rttirib ko‘rsatish.

### **Hajmga ega bo‘lmagan predmetlar.**

- a) to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi predmetlar: daftar, papka, kitob va b.
- b) kvadrat shaklidagi predmetlar: dastro‘mol, shaxmat doskasi, b.
- v) uchburchak shaklidagi predmetlar: chizg‘ich, bolalar bayroqchasi, b.
- g) aylana, doira, shar shaklidagi predmetlar: lagan, g‘ildirak, childirma va b.
- d) tabiat mahsulotlari: daraxt barglari, gullari.
- ye) aralash shakldagi narsalar: o‘yinchoq, baliq, bolg‘a, belkurak, arra va b.

### **Hajmli predmetlar.**

- a) geometrik shakllar: kub, silindr, konus va b.
- b) geometrik shakldagi predmetlar: chelak, qozon va b.
- v) tabiat mahsulotlari: qovun, tarvuz va b.
- g) aralash shakldagi predmetlar: obdasta, vaza va b.

*Natural ko‘rgazmali qurollar sifatida shartli ravishda hajmsiz deb qabul qilingan yupqa, shuningdek hajmli silindr, konus, shar shaklidagi predmetlar kiritiladi.*

Tasviriy ko‘rgazmali qurollar sifatida esa natyurmort asarlarining reproduksiyalari, tablisalari, fotografiyalari, deopozitivlardan keng foydalanish mumkin.

Narsani o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida foydalaniladigan ko‘rgazmalarni quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Turmushda va mehnatda qo‘llaniladigan predmetlardan tuzilgan ko‘rgazmali qurollar;

- a) uy va mehnat qurollari;
- b) tabiatdan olingan narsalar.

2. Modellar:

3. Qog‘ozda tasvirlangan rasmlar;

- a) Biron-bir predmetni chizish bosqichlari yoki rangda ishlash bosqichlari ko‘rsatilgan rasmlar;

b) tugallangan ishni xarakterini ko'rsatuvchi rasm.

Chizdirishga mo'ljallangan predmetlardan shundaylarini tanlab olish kerakki, shakli, rangi, tuzilishi aniq bilinib tursin. Shundagina talabalar predmetlarning bu asosiy belgisiga e'tiborni qaratadilar. Chizish uchun narsalar tanlashning eng muhim tomonlaridan biri uning shakli, rangi va fazoviy holatini hisobga olishdan iboratdir. Predmetlar o'ziga yarasha ma'lum tuzilishga, og'irlikka va o'ziga xos xarakterli yuzaga ega, qaysiki, biz ularni bu belgilari orqali idrok qilamiz, farqini yoki o'xshashligini topamiz va ularni tasvirlaymiz.

Chizish uchun natura tanlashda va uni tahlil qilishda, albatta shu narsani bolalar hayotida tutgan o'rniga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rgazmali qurollarning mohiyati va uni o'quvchilarga to'g'ri yetkazish maqsadida narsaning tuzilishini tahlil qilish va ularni solishtirishga to'g'ri keladi.

Solishtirish metodi predmet va hodisalar o'rtasidagi farq va o'xshashlikni aniqlashga xizmat qiladi.

Solishtirish vositasida narsalarning natural obrazi shakllanadi. Solishtirishda, avvalo, asosiy farqni topish, so'ngra o'xshash belgilarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Solishtirishda predmetlarning o'zi va rasmlar orqali o'tkazish mumkin.

Biroq amaliy solishtirish jarayoni ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, hattoki oddiy kuzatish bilan uni butunlay amalga oshirib ham bo'lmaydi. Agarda biz har xil uzoqlikda joylashgan hamma predmet va ob'yektlarni bir vaqtning o'zida aniq ko'ra olganimizda edi, solishtirish ancha yengil ko'chgan bo'lar edi.

Solishtirishda predmetlarning o'lchovlari, ranglarning ochlik-to'qlikdagi va ranglardagi o'xshashlik hamda farqlarni uzoqdan ko'rib aniqlash, so'ngra solishtirib ularni bir vaqtning o'zida bir xil aniqlikda ko'rishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun iloji boricha o'sha predmetlarga bitta-bitta, lekin tez-tez bir necha bor qarash kerak bo'ladi. Shu vaqtda narsalar aniq emas, umumiy ko'rinadi.

Bunday qarashda predmetlar to‘plash xira idrok qilinsa ham, biroq ularni yaxlit ko‘rish uchun sharoit yaratiladi.

Narsaning o‘ziga qarab rasm chizishda, avvalo, chiziladigan narsaning shakli, tuzilishi, rangi, o‘lchovlari sinchkovlik bilan kuza-tiladi. Narsalarning rasmini chizishda ma'lum tartibga rioya qilish ke-rak. Avvalo narsa rasmini qog‘oz yuziga to‘g‘ri joylashtirib olinadi. Bunda chiziladigan narsaning o‘lchoviga qarab qog‘oz belgilanadi.

Rasm chizish narsaning bo‘yi va enini qog‘oz betiga belgilab olishdan boshlanadi. Agarda rasm chiziladigan narsa simmetirik bo‘l-sa, avvalo o‘q chizig‘i chizib olingani ma’qul. So‘ngra narsaning eni, bo‘yi va shakli yengil chiziqlar bilan belgilab olinadi.

Rasm chizishda narsaning yirik bo‘laklari chizib olinadi, so‘ngra mayda bo‘laklariga o‘tiladi. Ish yorug‘ soyalarni tasvirlash bilan yakun-lanadi.

Yorug‘ deb biz narsani shu’la tushib turgan qismiga aytamiz. Ko‘pincha yorug‘ning o‘rtasida yaltiroq qismi bo‘ladi, bu blik deyiladi. Narsaning eng to‘q yeri soya deb ataladi. Bir narsadan ikkinchi narsaga o‘tgan aks tasvir refleks deb yuritiladi.

Soyalar ikki xil bo‘ladi: shaxsiy soya va tushuvchi soya. Narsani o‘z tanasida joylashgan soyasiga shaxsiy soya deyiladi, bir narsadan ikkinchi narsaga tushayotgan soyani tushuvchi soya deb yuritiladi.

Tugallangan rasm chizishdan tashqari rang orqali qisqa muddat (etyud) xomaki rasm ham tayyorlanadi, unda qisqa muddat ichida tez-tez narsani o‘ziga qarab ishlanadi.

Natyurmort ishlash jarayonida chizuvchilar narsalarni shakli, tuzilishi, rangi va shu kabi xususiyatlarini bir-biridan farqi va o‘xshash tomonlarini solishtirish orqali aniqlashni o‘rganadilar.

Shuningdek, narsaning qaysi geometrik shakliga xos ekanligini aniqlagan holda ularni perspektiv jihatdan tasvirlash yuzasidan bilim va malakalar hosil qiladilar.

Bu mashg‘ulotlarning kishilar uchun eng zarur xususiyatlaridan biri xotirani mustahkamlaydi. Narsaga qarab rasm chizishda fazoviy tasavvur va tafakkur o‘stiriladi.

Narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish malakalarini hosil qilish ikki bosqichda oshiriladi. Bular:

1. Shakli va tuzilishi murakkab bo‘lmagan yakka narsalarni o‘ziga rasmini chizish. Bunday narsalarni o‘ziga qarab rasmini chizishda ularning hajmini va perspektiv qisqarishini maqsad qilib qo‘yilmaydi.

2. Shakli va tuzilishi murakkabroq bo‘lgan narsalarning to‘plamini o‘ziga qarab rasmini chizish. Bunda narsalarni hajmini perspektiv qisqarishda tasvirlash shart qilib qo‘yiladi. Natyurmort tuzish uchun xalq amaliy san'ati buyumlari, idishlar, meva va sabzavotlar va x.k. ham tavsiya etiladi.

Chizish uchun natura predmetlar tanlashda predmetlarni tashqi ko‘rinishi haddan tashqari bezakdor bo‘lmasligi kerak. Ortiqcha bezak naturadagi yorug‘ soyalarni idrok etishni qiyinlashtiradi.

Orqa fon uchun tanlangan matolar gulsiz, silliq yuzali bo‘lgani maqsadga muvofiqdir.

### **Akvarelda rangtasvir ishlash bosqichlari.**

Rasm chizishni boshlashdan oldin ishni reja asosida bo‘limlarga ajratilgan holda, bosqichma-bosqich bajarish kerak.

*Ishni bir-biriga bog‘liq bo‘lgan quyidagi bosqichlardan olib boriladi:*

1. Rasmning kompozision yechimi.

2. Rasmni qurish.

3. Rasmga shakl berish usuli.

Ishni yuqoridagi bosqichlar asosida olib boriladi. Har bir bosqichda ishni alohida tugatib, boshqasiga o‘tish mumkin. Chunki, har bir bosqich o‘zicha alohida vazifani ado etadi. Rasm chizish davomida ishdagi xato-kamchiliklarni to‘g‘rilab borish kerak. Shundan so‘nggina ishni oxirigacha olib borish, aniqlik kiritish oldingi holatlarni tuzatish talab qilinadi.

Har bir rassomning uzoq yillar ijod qilishi natijasida uning ijodida o‘ziga xoslik yoki o‘zini ijodiy uslubi paydo bo‘ladi.

Endi yosh talabalarga kelsak, ularning kompozisiya haqidagi bilimlarini har bir mashg‘ulotda boyitib boradi. Kompozisiyaning qoi-



dalari, simmetriya, assimmetriya bilan tanishish talabalar uchun kelgusi ijod ishlarida juda zarurdir.

Masalan, rasm tasvir tekisligining o'rtasida bo'lsa, bu badiiylikdan uzoqlashgan hisoblanadi. Shuning uchun har bir chizuvchi rasm kompozitsiyani to'g'ri farqlab, kompozitsion talablarga to'la-tekis javob beradigan darajaga yetishish kerak.

*Bu degani:*

1. Tasvir tekisligidan shunday foydalanish kerakki, undagi rasm juda yirik va mayda bo'lib qolmasin;
2. Kompozitsiyani bo'linib qolishidan saqlash, ya'ni tekislik yuzasidagi tasvir ikki yoki uchga bo'linib ketmasin;
3. Kompozitsiyani shunday qurish kerakki, undan biror qismini olish yoki biror qismini qo'yish mumkin bo'lmasin;
4. Kompozitsiya markazini topish-bu kompozitsiyaning ma'nosi va xarakterini belgilaydi.

Rasm chizishga qo'yiladigan talablardan biri, kompozitsiya qoidalariga mos tushadigan qoida: irodalilik, yaxlitlik, haqiqiylik, ma'nolilikdir. Rasmni qog'oz betiga joylashtirishning bir necha xarakterli va zaruriy usullari bor.

*Shulardan birini ko'ramiz:*

1-usul. «Darcha» usuli. Bir parcha qog'oz olib, uning o'rta qismida to'rtburchak shaklida darcha ochiladi. Shu ochilgan teshikning shakli rasmga mo'ljallangan qog'ozni shakliga o'xshash bo'lishi kerak. Shu darcha orqali naturaga qaraymiz

2-usul. «Rom» usuli. Bunda talaba qo'yilgan naturani yaxshilab o'rganib oladi. Har tomondan qaraydi va rasm uchun mo'ljallangan qog'ozni yuqori qismiga shu naturaning kichraytirilgan kompozitsiyasini chizadi, lekin ish yuzasidan izlanishda davom etadi va nihoyat eng ma'qul kompozitsiya yechimi topilgach, uni rom bilan o'raydi.


3-usul. «Universal» usul. U yerda talaba «Darcha» yoki «Rom» usulini qo'llamasdan ish to'g'ridan-to'g'ri katta qog'ozga ko'zda chamlab kompozitsiyani chizish va naturani yaxlitlik holatini

yo‘qotmasdan ishni kompozisiya yechimini topishdagi bosqich bilan yakunlaydi.

### **Rasmni qurish**


Rasmni qurish mehnat talab ish jarayoni bo‘lib, birinchi galda ishning kompozisiyasini topish bilan boshlanadi. Ushbu bosqichda, albatta chizayotgan talaba buyumning qog‘oz yuzasidagi o‘rni va bo‘laklarini o‘zaro katta-kichiklik o‘lchamlarini hisobga oladi. Ishni shunday tugallash kerakki, unda yaxlitlik va umumiylik bo‘lishi zarur. Rasm chizishni endi o‘rgana boshlaganda «Darcha», «Rom» usulidan foydalaniladi. Katak ichiga olib chizish ilk o‘rganuvchilar uchun zarar keltirishi, ularda chamalab chizish, naturani his qilish qobiliyatini kamaytirishi ham mumkin.

Endi rasm chizishning «Universal» usulini ko‘rib chiqamiz. Universal usul chizuvchidan yig‘inchoqlikni, diqqatni bir joyga to‘plash kabi xislatlarni talab qiladi. Chizuvchilar naturaga qarab rasm chizishda hamon bir kasallikdan qutula olmaydilar, ya'ni naturada asosiy deb hisoblanmagan mayda qismlarni chizishga ko‘pincha berilib ketadilar. Bu esa naturada asosiy katta bo‘lak hisoblangan buyum shaklini ko‘rsatishda yoki umumiy tasavvur qilish yoki naturani butunligicha yaxlit his qilishdan uzoqlashtiradi.



## Rasmni qurishda (perspektiva) qoidalari.

San'atshunoslik fakultetiga kiruvchi abiturent perspektiva bilan yaxshi tanish bo'lmog'i lozim, uni o'zlashtirgan kishi rasm chizishda ham ijobiy natijalarga erishadi. «Ko'z oldiga keltirish» va «yoddan chizish» kabi vazifalarni qiynalmay bajara oladigan bo'ladi.



Perspektiva san'atini egallamay turib, savodli rasm chizish mumkin emas. Perspektiva asosan chizma geometriya kursida to'liq fan sifatida o'qitiladi.

Perspektiva rasm chizishni boshlashdan, ya'ni «qurish» da asosiy rol o'ynaydi. Har bir rasm chizuvchi narsani o'ziga qarab chizayotganda u chizayotgan har qanday buyum chizuvchining ko'rish nuqtasi joyiga nisbatan o'zgarib ko'rinadi.

## Shakl berish

Buyumlarni hajmli tasvirlash rangtasvir mashg'ulotlarida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli har bir chizuvchi mashg'ulotlarda o'zining kompozitsiyasi bo'yicha buyumlarning shaklini berish usulini tanlaydi. Qo'yilgan naturani chizishga kirishishdan avval uning konstruktiv tuzilishi va shakli bilan chuqurroq tanishib, tahlil qilib ish boshlansa, qo'yilgan maqsadga erishish osonroq bo'ladi.

Bizga ma'lumki, rasmda soya yorug'likning qattiq yumshoqligi turlicha bo'lgan qalamlar bilan buyum tekisliklarini tus (shtrix) berib yopish bilan olib boriladi.

Chizish paytida naturani surat tekisligi yuzasida kompozision joylashishini topish, uning soya yorug'lik holatini to'g'ri hal qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Rassomlardan ayrimlari naturani avval chiziqli qilib qurib chiqish kerak, keyin tushlashga kirishiladi deyilar. Bu usulda bajarilgan ish toza va pishiq chiqadi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, shuni aytish kerakki, tasvirni konstruktiv qurish davomida unga tus berish ham qo'shib borilsa, naturani soya yorug' chegarasi aniqlanib, naturaga shakl berish badiiy idrok bilan qo'shib olib borilgan bo'ladi. Geometrik modellarni tasvirlashda bu usul yaxshi natija beradi. Natura sun'iy yorug'lik bilan yoritilib ishlanadi. Bu esa naturada soya yorug'ni o'zgartirmasdan uzoq vaqt ishlash imkonini beradi. Ayrim hollardagina, ya'ni tirik natura rasmini chizish davomida yorug'lik ba'zan o'zgarishi mumkin. Yorug' soya chegarasi ham chizilayotgan narsani to'g'ri qurish uchun tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Ishning borishida buyumning umumiy yaxlit shaklini topish zarur, maydalashtirish kerak emas. Ayniqsa, tajribasi kamroq chizuvchi tezroq ishni tugatishga harakat qilib xatolikka yo'l qo'ydi, shuning uchun ular yaxlitlikni yo'qotmaslik usullarini o'rganishlari shart. Buning uchun yupqa mato ustidan natura ko'riladi.

Ishda kompozitsiya qurish to'g'ri topilgach, chizuvchi mayda bo'laklarni ishlashga, ya'ni umumiylikdan bo'laklarni aniqlashga o'ti-

ladi. Qachonki, bo‘laklar aniqlab ishlangach, yana ishning yaxlitligi ko‘riladi. Bu usul maydadan yirikka qaytish deyiladi.

Ishning oxirida natija shunday bo‘lishi kerakki, hamma mayda bo‘laklar bir yaxlitlik hosil qilsin.

Eng mas'uliyatli bosqich chizuvchi uchun hamma bosqichlarni muvaffaqiyatli yakunlashdir. Ishning kompozitsiion qurilishi va shakl berish ko‘zdan kechiriladi, ton jihatdan natyurmortni yaxlitligiga e'tibor qaratiladi. Ishning tugallanganligini ko‘pchilik bilan tahlil qilish foydalidir. Xato va kamchiliklar tuzatiladi, tayyor ishni yaxlitligini ta'min etishga o‘tiladi.

### **Rangtasvir ishiga qo‘yiladigan talablar.**

Rang bilan ishlangan natyurmortga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- tasvir qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtirilganligi;
- tasvirlangan buyumlarning o‘zaro nisbatlari to‘g‘ri olinganligi;
- chiziqli tasvir to‘g‘ri topilganligi;
- buyumlarning naturadagidek ochlik-to‘qlik nisbatlari ranglar yordamida to‘g‘ri ifoda etilganligi;
- tasvirdagi soya va yorug‘lik nisbatlarining och-to‘qligi to‘g‘ri ifoda etilganligi;
- tasvirdagi ranglarning soya va yorug‘lik ranglar nisbatlari yorug‘lik kuchiga mos tasvir etilganligi;
- natyurmortdagi buyumlarning lokal rang to‘qligi to‘g‘ri topilganligi;
- natyurmortdagi har bir buyumning materialiga mos ranglar yo‘nalishi tanlanganligi;
- har bir buyumning hajmi ifoda etilganligi;
- naturaga qo‘yilgan buyumlar o‘rtasida rang perspektivasi masofa erkin ifodalanganligi;
- akvarelda ishlash texnologiyasidan unumli foydalanganligi;
- natyurmortda ishtirok etayotgan ranglarning eng yorug‘ va eng to‘q joy berilganligi;
- umumiy yaxlitlik topilganligi;

- soya yorug‘, aks shu'la, yarim soya, blik va tushuvchi soyani rang vositalarida mohirona tasvirlanganligi;
- ichki qismi to‘liq va bo‘sh bo‘lgan buyumlarni farqli tasvirlanganligi;
- barcha buyumlarning o‘z predmet tekisligiga to‘g‘ri joylash-tirilganligi;
- aylanasiimon buyumlarni umumiy simmetrik qurilishini ta'minlan-ganligi.

Natyurmortni umumiy holda tahlil etishda, avvalo, qo‘yilgan natyurmort, so‘ng tasvir baholanadi. Tasvirlangan barcha elementlar yaxlitlikka bo‘ysundirilganmi, kompozision umumiylikdan ajrab qolmaganmi, o‘zining o‘rnini topganmi, natyurmortning umumiy yorug‘ toni buzilmaganmi? Bu savollar eng oxirgi bosqichda beriladi.

So‘zsizki, barcha kartina va polotnolarda chiziqli yechim topib olingandan so‘ng, bo‘yoqlar bilan ishlashga o‘tiladi. Natyurmort elementlari orasidagi ranglar uyg‘unligi ochlik-to‘qlik nisbatlarini to‘g‘ri aniqlab olish maqsadida «alla-prima» usulida yoki oqizib ishlash yoki turli yengil mazoklar bilan to‘liq nisbatidagi farqlikni tasvirlab olish usulidan ham foydalaniladi. Bu yerda ham yuqorida aytib o‘tilgan oxirgi bosqich bilan ish tugallanadi. Natyurmortlar xoh qalamda, xoh rangda ishlansa ham avvalo muvaffaqiyatli tasvirlay olish ko‘nikmasini tarkib topishiga yordam beradi.

## TAYANCH SO‘Z VA ATAMALAR LUG‘ATI:

**Avtoportret** – potret tasvir, unda rassom o‘zini tasvirlaydi

**Assimetriya** – simmetriyasizlik (nomutanosiblik)

**Antik** – qadimiy

**Apollon** – qadimgi grek mifologiyasida – Quyosh xudosi, san‘at homiysi

**Atlanta** – arxitektura peshtoqlarini ko‘tarib turuvchi, erkak figurasi shaklidagi ustunlar

**Akademik uslub** – Uyg‘onish davri va qadimgi davr san‘ati shakllariga asoslangan uslub

**Afsonaviy janr** – xalq ogzaki ijodi asosida tasviriy san‘at namunalarini aks ettiruvchi janr

**Badiiy an‘ana** – qadimdan inson faoliyatining adabiyot, san‘at qabi sohalarida erishilgan va saqlanib qolingan ilgor yutuklar va tajribalar majmui

**Baget** – tayor rasm, suvrat qabilarni ichiga joylashtirish uchun mo‘ljallangan va sirti o‘yma, metall yoki ganch naqshlar bilan bezatilgan to‘rtburchakli moslama

**Blik** – narsa va tasvirlarning eng yorug, yaltiroq joyi

**Byust** – fransuzcha so‘z bo‘lib, “ko‘krak” ma‘nosini anglatadi. U odamning ko‘kragidan yuqori qismini tasvirlaydigan haykal hisoblanadi.

**Garmoniya** – bog‘liqlik, uyg‘unlik, mutanosiblik

**Gravyura** - fransuzcha so‘z bo‘lib, “o‘yish” ma‘nosini bildiradi

**Detal** – naturaning ma‘lum bir qismi

**Drapirovka** – fon uchun ishlatiladigan har xil rangli matolar

**Yorugsoya** – (yorug va soya) tasviriy san‘at nazariyasiga doir atama

**Yorug (shu‘la)** - tasviriy san‘atning nazariy asoslariga oid atama bo‘lib, nur va soya qonuniga tegishlidir

**Janr** – hayot lavhalari, qo‘rinishlarini uning mazmuniga ko‘ra tasvirlovchi badiiy asar turidir.

**Zarisovka** – tugallanmagan rasm, chizgi



**Ilyustrasiya** – lotincha ko‘rgazmali tasvirlash, yoritish ma’nosini anglatadi.

**Kartina** – tasviriy san’at asari

**Komponovka** – chizilishi kerak bo‘lgan naturani qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish

**Kompozitsiya** – tuzish, bir-biriga ma’lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish

**Kompozitsiya qonunlari** - tasviriy san’atda yaratiladigan badiiy asarlarning goyasi, mazmuni hamda badiiyligini tartibga soluvchi nazariy tushuncha

**Kontrast** – qarama-qarshilik, zidlik

**Maska** – niqob, san’atda David, Apollon yuz qismining gips nusxalari tushuniladi

**Molbert** – rasm ishlash uchun moslama

**Model** – namuna

**Pastel** – rassomchilikda ishlatiladigan rangdor yumshoq qalam. Tarkibi bo‘yoq, bo‘r va bog‘lovchi moddadan iborat

**Perspektiva** – rasmda uzoqdan ko‘ringan narsalarning tegishli kattalikda berilishi, qisqarish

**Nabroska** – xomaki ish, qoralama, xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajarilgan chiziqli rasm

**Natyurmort** – tasviriy san’at janri (franstuzcha – jonsiz tabiat majmui)

**Rakurs** – suratda chizilayotgan uzoqdagi figura va buyumlarni kichraytirib ifodalash

**Shaxsiy soya** – tasvirlanayotgan narsalarning sirtidagi o‘z soyasi.

**Shtrixlash** – qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo‘llaniladigan uslub.

**Siluet** – kishi, hayvon, qush kabi narsalarning soyaga o‘xshatib ishlangan rasmi

**Sangina** – rassomchilikda ishlatiladigan yumshoq to‘q qizil qalam

**Tushuvchi soya** – predmetdan tushayotgan soya

**Portret** – fransuz so‘zidan olingan bo‘lib “tasvir” aniqrogi “odam tasviri” ma’nosini anglatadi.

**Plastik anatomiya** – anatomiya bo‘limi. Bunda inson tanasi nisbatlari, ichki tuzilishi va tana tashqi shaklining harakat vaqtida o‘zgarishi o‘rganiladi. Asosiy e’tibor skelet tuzilishi, muskullar, suyak va muskullar birlashishiga qaratiladi.



**SHODIYEVA SADOQAT BOBOQULOVNA**  
**RANGTASVIR**

*Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 60210800-Amaliy san’at (turlari bo‘yicha) 60210500-Rangtasvir (dastgohli) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha taxsil olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**Muharrir:** *E.Eshov*  
**Tex.muharrir:** *D.Abduraxmonova*  
**Musahhih:** *M.Shodiyeva*  
**Badiiy rahbar:** *M.Sattorov*

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.

Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 04.01.2023. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garnitura 1/16.

Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog‘ozi.

Bosma tabog‘i 6,25 Adadi 20. Buyurtma № 8



**“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ**  
**bosmaxonasida chop etildi.**

**Buxoro shahar Namozgoh ko‘chasi 24 uy**

**Tel.: + 998 98 778 47 27**